

Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida moliyalashtirilgan loyihalarga ajratiladigan budget mablag'ining qolgan 5 foizini ajratishga tavsiya etilmagan loyihalar ro'yxati

T/r.	Ro'yxatga olish raqami	Loyiha mavzusi	Loyiha rahbarining (F.I.Sh)	Ijrochi tashkilot nomi	Loyihani bajarish muddati	Ajratilgan mablag' (mln. so'mda)	Izoh
1	AL-524123061	Samarali seleksiyalash usullaridan foydalanib, qorabayir zotli otlarning yangi naslli guruhlarini yaratish	Mdraximov Shodlik Nazarovich	Qarshi mintaqaviy temir yo'l uzeli unitar korxonasi qoshidagi Qorabayir otchilik majmuasi	01.07.2022-30.06.2023	550,5	Erishilgan natijalar: Tajribadagi otlarni oziqlantirish, saqlash va parvarishlash, zotli otlarni samarali seleksiya usullaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi kabi ilmiy natijalar olingan; Loyihada ilmiy va amaliy uslublarni qo'llab Qorabayir ot zotining naslini yaxshilash maqsadida me'yor asosida oziqlantirib yilqichilikda takror ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil qilib zooveterinariya qoidalarini qo'llab, ularni bosh sonini va sifatini ko'paytirish va ot sport o'yinlariga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishga asos bo'lishi ko'rsatilgan; Ayg'ir va biyalarni tanlash va juftlash orqali uning eksteryer va konstitutsiya tiplariga, yoshiga qarab, biyalarga nisbatan ayg'ir bir klass yuqori bo'lishi juftlashda hisobga olinishi hamda yilqichilikda nasldor ayg'irlarni tanlashga bo'lgan talab, biyalarni tanlashga bo'lgan talabdan ustun turishi bilan asoslangan. Qayd etilgan kamchiliklar: Loyihaning muddati qisqaligi sababli tijoratlashtirish salohiyatining mavjudligi va (tijoratlashtirishga tayyorlik darajasi) to'liq shakllantirilmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtdan 545 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
2	IL-632204175	Orol dengizining qurigan tubi ekologik, tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan urug' zaxirasi mavjud bo'lgan o'simlik turlarini ekish va istiqbolli o'simlik turlari urug'chiligini barpo etish	Najmiddinov Jalol Nuritdinovich	Buxoro cho'l yaylov ozuqabop o'simliklar urug'chiligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi	01.05.2022-30.04.2023	593,3	Erishilgan natijalar: O'zbekiston florasida sho'rga chidamli o'simlik turlarining urug'larini terib, urug' biologiyasi o'rganilgan; Qurigan orol tubida introduksion pitomnik barpo etish ishlari olib borilgan; Ayrim turlarning ontogenezing dastlabki bosqichlari o'rganilgan; Hududning sho'rlanish darajasi har xil bo'lgan tuproqlarga moslashgan 40 turdagi o'simlik urug'larini ekib, biologiyasini o'rganib, ulardan tanlangan turlarning urug'chiligini yo'lga qo'yish ishlari olib borilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Kalendar rejada keltirilgan vazifalarning O'zbekiston florasida sho'rga chidamli o'simlik turlarini tanlash asosida ajratib olish hamda ulardan

						urug'chilik paykallarini barpo etib, urug' zaxirasini yaratish ishlari bajarilmagan; Loyihada qo'yilgan vazifalarning dastlabkilari, ya'ni 40-turdagi o'simlikni urug'ini terish va ekish ishlari amalga oshirilgan, ammo ayrim unib chiqqan o'simliklarning deyarli barchasi saqlanib qolmagan, natijada loyihaning maqsadiga erishilmagan; Natija bo'lmaganligi sababli Scopus va Web of Science bazalaridagi jurnallarda maqolalar nashr etilmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtidan 532 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
3	IL-632145012	Orol dengizining qirg'oq hududida urug'chilik plantatsiyasini tashkil etish	Allamuratov Maxmut Omarovich	"Nukus yoshlar texnopark" MCHJ	01.05.2022-30.04.2023	955,0 Erishilgan natijalar: O'simlik urug'lariga gidrogelni sinash davrida shu ma'lum bo'ldiki 1 ga maydonga beriladigan gidrogel miqdori 60 kg bo'lgan vaqtda tuproq tarkibida yetarli darajada namlikni yetkazib berolmasligi, 1 ga maydonga 100 kg miqdorda gidrogel berilganda namlikni o'ziga ko'p miqdorda yig'ib olishi tuproq tarkibida namlikning yuqori bo'lishiga hamda o'simlikning ildiz tizimida tuzlarning to'planishiga sabab bo'ladi. Demak, qurigan Orol dengizi tuproqlariga 1 ga maydonga ekiladigan o'simlik urug'lariga 80 kg miqdorda berilishi maqsadga muvofiq kelishi ma'lum bo'lgan; Olib borilgan tajriba maydoniga ekilgan ko'chatlardan xar bir dona ko'chatga gidrogeldan 250 gr solingan 1-variantda Soleros yevropeyskiy (Salicornia europayea) 8 foiz, Cappariyes (Kapari) 5 foiz o'simliklar ko'chatlarining o'rtacha 6,5 foiz ko'karuvchanligi aniqlangan; Tajribadagi 2-variantda gektariga 500 kg gidrogel qo'llanganida 3 xil o'simlik navlari Soleros yevropeyskiy (Salicornia europayea) 18 foiz, Cappariyes (Kapari) 13 foiz, Terpentinnoye derevo (Pistacia terebmthus) 11 foiz ko'karuvchanligi o'rtacha 14 foiz ekanligi, 3-variantda esa gektariga 750 kg gidrogel qo'llanilganida eng yuqori ko'rsatkich Soleros yevropeyskiy (Salicornia europayea) 29 foiz, Cappariyes (Kapari) 26 foiz, Terpentinnoye derevo (Pistacia terebmthus) 17 foiz ko'karganligi aniqlangan. Orolning qurigan tubida urug' va ko'chatlarni ekish va parvarishlash ishlarida gidrogeldan foydalanish bo'yicha xar bir turga tegishli ma'lumotlarni, ya'ni olingan ijobiy natijalarga asoslanib tijoratlashtirish mumkin. Qayd etilgan kamchiliklar: Shartnoma shartlari va kalendar reja to'liq bajarilmagan; Kalendar rejada aniq bajariladigan tadbirlar ketma-ketligi keltirilmagan. Olingan ishlanmaning xorijiy analoglari mavjud, ulardan hech qanday ustunlik tomonlari mavjud emas; Loyiha shartnomasida bajarilishi shart bo'lgan Scopus va Web of Science bazasidagi jurnallarda maqolalar nashr etilmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtidan 380 kun kech topshirgan) bajarilmagan.

4	S-202003161	Musiq va san'at o'quv muassasalari uchun "Bolalar raqslari" fanidan 3D tizimli interaktiv o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish	Xamroyeva Xulkar Xamidullayevna	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi	01.03.2021-31.03.2024	1 000,0	Erishilgan natijalar: Mavzu bo'yicha "Qashqadaryo bolalar folklor raqslari nomlarining o'zbekcha-inglizcha qisqacha izohli lug'ati", "Sirdaryo bolalar folklor raqslari terminlarining o'zbekcha-ruscha-qozoqcha-inglizcha qisqacha izohli lug'ati", "O'zbek bolalar folklor raqslari", "Farg'ona-Andijon-Namangan bolalar folklor raqslari terminlarining o'zbekcha-ruscha-inglizcha qisqacha izohli lug'ati" ishlab chiqilgan; Loyiha doirasida jami 159 ta ilmiy maqola chop etilgan, shundan 72 tasi xorijda, 11 tasi OAK xalqaro jurnallarida, 4 tasi OAK milliy jurnallarida nashr qilingan. 56 ta xalqaro, 1 ta milliy va 15 ta xalqaro konferensiyada ma'ruzalar o'qilgan, 2 ta monografiya, 1 ta kitob-albom, 1 ta o'quv metodik qo'llanma, 5 ta ilmiy to'plam nashr qilingan. 4 ta dasturiy mahsulotga patent yoki guvohnoma olingan; Bolalar folklor raqslari bo'yicha xalqaro hamkorlik doirasida Moskva Davlat lingvistika universiteti va Qozog'iston universitetlari bilan tadqiqotlar amalga oshirilgan; Raq s san'ati va madaniyatini rivojlantirish bo'yicha xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va mahorat darslari tashkil etilgan; Loyiha o'zbek bolalar folklor raqslarini tiklash, uni ilmiy asosda tadqiq etish hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi, bu ilmiy va amaliy jihatdan muhim natijalarga ega loyiha hisoblanadi. Qayd etilgan kamchiliklar: Xorijiy analoglar odatda kattalar raqs san'atiga yo'naltirilgan bo'lib, bolalar folklor raqslari bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar mavjud emas. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtidan 212 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
5	PZ-2020042188	Gormonal faol gipofiz o'smalarining qaytalanishi hamda yurak qon-tomir asoratlari erta tashxislash va prognozlash yangi texnologik uslublarini ishlab chiqish	Issayeva Saodat Saydullayevna	Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	04.01.2021-31.12.2023	1 500,0	Erishilgan natijalar: Birinci marta tizimli yondashuv usuli va kognitiv tahlilni qo'llash orqali AKTG-ZSK ning operatsiyadan keyingi tashxis va davolash usullariga klinik-iqtisodiy tahlillar o'tkazilgan hamda AKTG-ZSK uchun desmopressin sinovining erta tashxis va kasallik natijalarini bashorat qilishdagi roli baholangan; Birinci marta O'zbekiston Respublikasi bo'yicha (SK) bilan kasallangan bemorlarda yurak-qon tomir asoratlari (KVO) chastotasi baholangan. (SK) bilan kasallangan bemorlarda KVO ning tarqalishi va tuzilmasi bo'yicha obyektiv ma'lumotlar olingan. (kasallik turi, bosqichi-remissiya, relaps, kasallik davomiyligi, bemorlarning jinsi va yoshi hisobga olingan holda); Birinci marta (SK) bilan kasallangan bemorlarda KVO rivojlanishi va natijalarida RFD-15 sitokinlarining roli bo'yicha yangi ma'lumotlar olingan; "Kushing sindromi bo'lgan bemorlarda yurak-qon tomir xavflarini baholash kalkulyatori" yaratilgan. Qayd etilgan kamchiliklar:

							Shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtdan 151 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
6	IL-4721101717	Xizmat ko'rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish	Azimov Inomjon Mamasodiqovich	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi	01.04.2022-31.03.2023	791,9	Erishilgan natijalar: O'zbek tilida ilk marotaba milliy nomlar bazasini o'z ichiga olgan elektron platforma ishlab chiqildi; Mazkur platforma amalda qo'llanilayotgan ishlab chiqarish, savdo obyektlari, mahsulot nomlarini tartibga solishga yordam beradi; Yangi ishlab chiqarish mahsulotlariga nom berish jarayonida til me'yorlarining buzilishining oldini olishga xizmat qiladi. Qayd etilgan kamchiliklar: Loyiha natijasi milliy brend uchun nomlar zaxirasi va portali yaratilishi lozim lekin saytda bunday imkoniyat mavjud emas; Tadqiqot yakunida tadbirkorlik subyektlari, tilshunoslik va marketologiya sohalari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun xizmat ko'rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasi yaratilishi lozim bo'lgan lekin saytda bunday imkoniyat mavjud emas. http://uznom.uz saytida bajarilishi kerak bo'lgan juda ko'p ishlar yozilgan lekin mazkur saytga kirishni hech qanday imkoni bo'lmadi va bajarilishi kerak bo'lgan ishlar bajarilmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtdan 151 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
7	ILM-202105001	Kichik quvvatli iste'molchilar uchun O'zbekiston iqlimiy sharoitlarida samarador ishlovchi shamol energetik qurilmalarini yaratish	Sadullayev Nasullo Ne'matovich	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti	01.06.2021-31.05.2023	500,0	Erishilgan natijalar: Shamol energetik qurilmasi turbinasiga kiruvchi va chiquvchi shamol tezliklarini baholash orqali turbinaning shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyenti va chiquvchi mexanik quvvatini baholash ifodalari aniqlangan va "ANSYS" dasturida tadqiq etilib, dastlabki natijalar olingan; Shamol energetik qurilmasining matematik modeli va nazariy ma'lumotlar tahlili asosida ko'tarish hamda tortish koeffitsiyentlarining bir-biriga bog'liqligi aniqlangan; "KOMPAS" dasturi yordamida shamol energetik qurilmasining uch o'lchamli modeli yaratilgan; Yaratilgan modeldagi parraklar "ANSYS" dasturida loyihalashtirilgan; Turbina parraklarining turli shakllari turbulent va laminar oqimlarda "ANSYS" dasturi yordamida simulyatsiya qilingan; Yaratilgan vertikal o'qli shamol energetik qurilmasi uchun foydali modelga FAP 02138-sonli patent olingan; Kichik quvvatli iste'molchilar uchun O'zbekiston iqlim sharoitlarida samarador ishlovchi shamol energetik qurilmasining tajriba namunasi ishlab chiqilgan; Shamol energetik qurilmasi namunalarini korxonada seriyali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha zarur bo'lgan texnik pasport ishlab chiqilgan. Qayd etilgan kamchilik:

							Ilmiy tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar hisobotga ilova qilinmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtidan 144 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
8	IL-21071162	Sholi ko'chatlarini ekuvchi mashinaning sanoat namunasini yaratish	Abdullayev Dilmurodjon Asadullayevich	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	01.06.2022-30.05.2023	492,8	Erishilgan natijalar: Loyiha to'liq yakunlangan taqdirda ishlab chiqilgan mahalliy sholi ko'chatlarini ekishning mexanizatsiyalashgan texnologiyasini amalga oshiradigan texnika vositasini tijoratlashtirish imkoniyati mavjud; Hisobotda 9 ta ilmiy ish ilova qilingan: 4 ta xorijiy jurnallarda, 1 ta MDH jurnalida, 2 ta mahalliy jurnallarda, 1 ta xalqaro va 1 ta Respublika bo'lib o'tgan konferensiya to'plamlarida chop etilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida mahalliy sholi ko'chatlarini ekishning mexanizatsiyalashgan texnologiyasini amalga oshiradigan texnika vositasining konstruksiyasi ishlab chiqilganligi, tajriba nusxasi tayyorlanib sinovlari Andijon viloyati Paxtaobod tumani "Boykechik orzusi" fermer xo'jaligi dalalarida o'tgan. Loyiha bo'yicha tuzilgan shartnomalarning kalendar rejasining 2-bandining "agrotexnika talablarini ishlab chiqish" qisimi, 3-bandning "parametrlarni asoslash" qisimi, 5-bandi "Ko'chat ekadigan mashinani ishlab chiqish uchun dastlabki talablar va texnik topshiriqlar tayyorlash" va 6-bandi "tavsiyalar tayyorlash" qisimi bajarilmagan; Xorijiy jurnallarda chop etilgan 3 ta maqola loyiha mavzusiga mos kelmaydi. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtidan 139 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
9	AL-4721521012	O'zbekiston Fiziklar Kengashi elektron platformasini ishlab chiqish va ishga tushirish	Gulyamov Kadir Gafurovich	O'zbekiston fiziklar kengashi	01.06.2022-30.05.2023	1 381,8	Erishilgan natijalar: O'zbekiston Fiziklar kengashi portali hamda uning negizida http://cpru.uz/ onlayn o'quv platformasi ishlab chiqilgan; Kalendar reja bajarilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Loyiha doirasida muhim ilmiy natijalar haqida maqola, tezis va boshqa ilmiylikni ko'zda tutuvchi hujjatlar hisobotda keltirilmagan; Hisobotning kalendar rejasidagi 4-bandi: Kengash tomonidan fizika sohasidagi ilm-fan va ta'limni rivojlantirishning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni keng jamoatchilik ishtirokida shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda ularni muhokamasini yo'lga qo'yish bandi kalendar rejada aks etmaganligi aniqlandi; Hisobotning kalendar rejasidagi 5-bandi: O'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilar uchun fizika fanini o'qitish bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratish (mavzular kesimida) bandi kalendar rejada aks etmaganligi aniqlandi; Loyiha doirasida muhim ilmiy natijalar haqida maqola, tezis va boshqa ilmiylikni ko'zda tutuvchi hujjatlar hisobotda keltirilmagan;

							Ilmiy jihatdan maqola, tezis, mualliflik guvohnomalari va boshqalar olinmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandini (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtdan 133 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
10	IZ-2020022810	Xavfsiz yo'l dasturiy ta'minotini ishlab chiqish	Kalauov Saydulla Aymaxanovich	Bosh prokuratura akademiyasi	01.10.2020-30.09.2022	1 000,0	Erishilgan natijalar: “Xavfsiz yo'l” mobil ilovasi yaratilgan; Jamoat transporti va yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi transport vositalarini videoregistrator, videokuzatuv va tasvirga olish texnika vositalari yoki mobil qurilmalar bilan majburiy jihozlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqilgan; Yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmati xodimlarining xizmat faoliyati natijalarini baholash hamda yo'l-patrul xizmati xodimlarining yo'l harakati ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlarini yanada yaxshilash maqsadida munosib xodimlarni rag'batlantirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqilgan; Transport vositalari haydovchilari tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklarni foto va video qayd etishning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha konsepsiya va uning texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan. “O'zbekistonda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash: hozirgi holat va istiqboldagi vazifalar” mavzusida xalqaro, “Xavfsiz yo'l: muammo va yechimlar” hamda “yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda innovatsion yondashuvlar” mavzularida Respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Ilmiy loyihani bajarish natijalari bo'yicha sinov dalolatnomalari mavjud emas; “Xavfsiz yo'l” dasturiy ta'minotini ishlab chiqish mavzusidagi innovatsion loyihani bajarish natijalari bo'yicha Kiberxavfsizlik markazi tomonidan berilgan ekspert xulosasi mavjud ammo mobil ilovani tatbiq etish dalolatnomalari, mahsulotning sertifikatlari, litsenziyaviy shartnomalari mavjud emas; “Xavfsiz yo'l” dasturiy ta'minotini ishlab chiqish mavzusidagi innovatsion loyihani bajarish natijalariga ko'ra yaratilgan platforma va mobil ilovalarni tijoratlashtirishga tayyorgarlik darajasi bo'yicha hisobotda ma'lumotlar mavjud emas. “Xavfsiz yo'l” mobil ilovasini eksportga mo'ljallanganligi bo'yicha ma'lumotlar hisobotda keltirilmagan; Loyihaga ajratilgan budget mablag'larni sarflashda kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Mablag'larni sarflanishi bo'yicha hisobotlar mavjud emas. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandini (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtdan 128 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
11	IL-432105783	O'zbekiston sharoitida organomineral o'g'itlar va	Uraimov Tojiddin XXX	Andijon qishloq xo'jaligi va	01.12.2021-30.11.2023	1 000,0	Erishilgan natijalar:

		fiziologik faol moddalarni kompleks qo'llash asosida kungaboqar va makkajo'xori yetishtirishning ekologiyalashgan texnologiyalarini yaratish		agrotexnologiya lar instituti			Andijon viloyati sharoitida kungaboqar va makkajo'xori ekinlari o'sib-rivojlanishi, hosildorligi, hosil sifat va tuproq unumdorligiga Ekogum bio, Ekosil, Ekogum AF, Ekogum kompleks, Ekogum FK, Polibor va Immunoakg kabi organomineral o'g'itlarni kompleks qo'llash ahamiyati ilmiy asoslangan; Organo-mineral o'g'itlar va biologik faol moddalarni kompleks qo'llash asosida kungaboqar va makkajo'xori ekinlari yetishtirilganda qo'llanilmagan sharoitga nisbatan kungaboardan 6,1-7,1 sentner, makkajo'xoridan 18,4-19,7 sentner qo'shimcha hosil olishga erishilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Hisobotda o'rganilgan stimulyatorlarning tarkibi va qo'llash muddat me'yorlari haqida ma'lumotlar ya'ni tasnifi keltirilmagan; Kalendar rejada tadqiqotning ikkinchi yil iyun va iyul oylarida ko'rgazmali seminar va seminar treninglar tashkil etish belgilangan, ammo ma'lumotlar yoki foto lavhalar keltirilmagan; Fermer xo'jaliklari yer maydonlarida kungaboqar va makkajo'xori ekinlarini ushbu tavsiya bo'yicha parvarishlanganda qancha so'm sof foyda va rentabellikka erishganligi loyiha hisobotida ham, ilovalarda ham, fermer ma'lumotnomalarida ham keltirilmagan; Tijoratlashtirish uchun yetarlicha ma'lumotlar taqdim etilmagan; Loyihada o'rganilgan organo-mineral o'g'itlar va biologik faol moddalarni kompleks qo'llash asosida kungaboqar va makkajo'xori ekinlariga ta'siri bo'yicha olingan ilmiy ishlanma xorijiy mavjud analoglar bilan solishtirilmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandini (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtidan 123 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
12	IL-432105651	"Umurtqa pog'onasi og'ir jarohatlarini jarrohlik usulida davolashda yangi davolash xususiyatiga ega kalsiy-fosfat qoplamali titan implantatlarni yaratish, tayyorlash va amaliyotga keng joriy qilish	Yuldashev Ravshan Muslimovich	Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	01.12.2021-30.11.2023	1 000,0	Erishilgan natijalar: Loyiha bir nechta ilmiy fanlar — spiral neyroxirurgiya, travmatologiya-ortopediya, eksperimental tibbiyot va biotibbiyot materialshunosligi tutashgan joyda amalga oshirilgan; Kalsiy fosfatlarga asoslangan kompozit qoplamaning suyak to'qimasi bilan o'zaro ta'sirining rentgen va mikrotomografik tasviri o'rganildi; Endoprotezlar ishlab chiqarishda kompozit kalsiy-fosfat qoplamasidan foydalanish osseointegratsiya jarayonlarini kuchaytiradi va shu bilan aseptik beqarorlik xavfini kamaytiradi va ulardan foydalanish zamonaviy import o'rnini bosish ehtiyojlariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotni yaratadi; Loyihani amalga oshirish uchun tanlangan uslub va usullar loyiha maqsadi va vazifalariga to'g'ri keladi va ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan; Texnik, metodik va dasturi hujjatlari ushbu turdagi loyiha standartlariga javob beradi va amaldagi talablarga rioya qilgan xolda shakllantirilgan; Loyiha doirasida olingan ilmiy natijalar xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan ilmiy nashrlarda chop etilgan. Qayd etilgan kamchiliklar:

							Shartnoma shartlarining 4.2-bandini (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtdan 123 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
13	MRB-2021-533	Perovskitga o'xshash materiallar asosidagi davriy tuzilmalarni olish va o'rnatish	Gulamova Dilbar Djo'rayevna	Materialshunoslik instituti "Fizika-Quyosh" IICHB	01.12.2021-30.11.2023	850,0	Erishilgan natijalar: Yuqori haroratli perovskitsimon o'tkazgichlar va yuqori teksturalangan, segnetoelektrlarni sintez qilish texnologiyasini amalga oshirish metodikasi ishlab chiqilgan, ular asosida radio va mikroelektronika uchun qayta sozlanadigan parametrlilik aralash tizimlarni olish mumkin; Ilk bor Katta quyosh pechida yuqori haroratda perovskitga o'xshash mayda g'ovakli strukturali va yuqori teksturalik, izotrop kub kristall panjarali segnetoelektrlari sintez qilingan; Qatlamli strukturada nanoo'lchamli zarrachalar-aro chegaralarga ega bo'lgan o'ta o'tkazuvchanlik fazm-gomologlari zarrachalar-aro chegaralarda (nanobirikmalar bilan) zaryadlarning konsentratsiyasini ta'minlashi, ya'ni yuqori to'k parametrlari uchun qulay bo'lgan Jozefson effekti imkoniyatini ta'minlashi ko'rsatilgan; Qarshilik va magnit qabul qiluvchanlikni o'lchash egri chiziqlarida turli fazalarning o'ta o'tkazuvchanligini aniqlaydigan effektlar mavjudligi qayd etilgan. Qayd etilgan kamchilik: Olingan natijalar eksportga mo'ljallanganligini baholash uchun yetarli emas. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandini (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtdan 122 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
14	FZ-201904273	Respublikaning turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos uzumning agrobiologik xususiyatlarini o'rganish asosida eksportbop xo'raki va istiqbolli texnik navlarni yaratish	Arzumanov Arkadiy Shagenovich	O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti	01.10.2019-30.09.2022	1 275,0	Erishilgan natijalar: Uzunmning yangi FAYZ va BARAKA navlari yaratilib № NAP 00414 va № NAP 00413-raqamli patentlar olingan; WoS va Scopus bazasidagi jurnallarda 4 ta xalqaro ilmiy maqola chop etilgan; Eksportga mo'ljallangan uzum navlarining texnik va stol navlari ajratilgan; Uzunmchilik va uzunmchilik fanini yanada yuqori darajaga olib chiqadigan, O'zbekiston sharoitida plastik bo'lgan yangi yuqori mahsuldor uzum navlarini yaratish uchun zamin yaratilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Shartnoma (4.2-bandini) ga amal qilmagan holda, yakuniy ilmiy hisobot muddatida 114 kunga kechiktirib topshirgan.
15	UZB-Ind-2021-93	Stressli agro-ekotizimlarida ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun yangi biochar va rizobakteriyalarga asoslangan bioinokulyant yaratish	Egamberdiyeva Dilduza Rustamovna	O'zbekiston milliy universiteti	01.01.2021-31.12.2023	1 500,0	Erishilgan natijalar: Ushbu loyiha doirasida O'zbekiston sharoitida birinchi marta katta miqdordagi potensial xom ashyoga ega bo'lgan maishiy chiqindilar, bug'doy somoni, parranda go'ngidan biochar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan; 400 C haroratda 40 daqiqa davomida piroliz natijasida tanlangan xom ashyodan biochar olish uchun maqbul ekanligi aniqlangan; Tanlangan xom ashyolar orasida esa parranda go'ngidan eng ko'p miqdorda-73,9% biochar ishlab chiqarishi isbotlangan;

							Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 223 ta turli xil chiqindi poligonlari mavjud bo'lib, u yerda yiliga million tonnagacha chiqindi to'planadi, ushbu chiqindilarni qayta ishlash mamlakatimiz uchun, shuningdek qishloq xo'jaligi uchun o'ta muhimdir; Biochar substratiga ikki xil tuproq sharoitida – ya'ni, suv stressi va sug'orish sharoitida “Bradyrhizobium japonicum” bakteriyalarining inokulyatsiya qilinishi, nazoratga nisbatan o'simliklar tuganaklarining o'sishi, rivojlanishi va shakllanishini oshirgan; Suv stressi sharoitida tovuq go'ngi va maishiy chiqindilardan bioko'mir 1% konsentratsiyasida namlik darajasi 48% ni saqlab qolgan va o'simliklarning rivojlanishi va vegetatsiya davrini optimallashtirgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtidan 100 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
16	FZ-2021021038	Olmaning yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan noyob belgi va xususiyatlarga ega mahalliy Qand olma, Boysun olma, Shoyi olma, Muz olma, Xazarasp navlarini tiklash va onalik bog'larini yaratish	Baymetov Karim Isayevich	O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti	01.11.2021-31.10.2022	497,7	Erishilgan natijalar: Ilmiy ekspeditsiyalar natijasida olmaning yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan issiqlikka, sovuqqa va tuproq sho'rlanishiga chidamli qadimiy mahalliy nav va namunalari yig'ib keltirilgan; Ekspeditsiyalar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyati hududlarida noyob belgi va xususiyatlarga ega, faqatgina Respublikaning janubiy va shimoliy viloyatlari mahalliy aholi tomorqalaridagina saqlanib qolingani olmaning qadimiy mahalliy navlari o'rganilgan, ularning manzillari aniqlangan; Yig'ilgan mahalliy olma navlariga pomologik tasnif berilgan; Yig'ilgan olmaning ushbu mahalliy navlaridan institut hududida onalik bog'lari barpo qilingan; Yig'ilgan “Qand olma”, “Boysun olma”, “Shoyi olma”, “Muz olma”, “Hazarasp” kabi qadimiy mahalliy olma navlari kelajak avlod uchun kafolatli saqlash maqsadida Milliy genofondga joylangan. Qayd etilgan kamchiliklar: Kalendar rejaning 6-bandida “Ko'chatxonadagi ko'chatlarning unuvchanligini aniqlash va ularda biometrik o'lchovlarni olib borish” vazifasi belgilangan. Biroq, hisobotda ko'chatlarning unuvchanligini aniqlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilmagan; Kalendar rejaning 9-bandida “Fermer xo'jaliklarida mahalliy navlarni aprobatsiya o'tkaziladi, nav tozaligi aniqlanadi va identifikatsiya qilinadi” vazifasi belgilangan. Biroq, hisobotda mahalliy navlarni aprobatsiyadan o'tkazish, nav tozaligini aniqlash va identifikatsiya qilish bo'yicha ma'lumotlar keltirilmagan; Kalendar rejaning 11-bandida “Olmaning mahalliy navlariga pomologik tavsif beriladi va katalog tayyorlanadi” hamda 12-bandda “Olingan natijalar bo'yicha kataloglar tayyorlanadi va nashr etiladi” deyilgan. Biroq, hisobotda olma navlariga katalog tayyorlanishi va chop etilganligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilmagan; 2 ta xalqaro va 2 ta mahalliy maqolalar loyiha mavzusiga aloqador emas. 3 ta xalqaro tezis loyiha mavzusiga aloqasi yo'q.

							Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtidan 92 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
17	I-IRV-2021-463	Biotexnologik mahsulotlar ilmiy ishlanmalarini yaratish jarayonlarini nazorat qilishga mo'ljallangan raqamli platformani ishlab chiqish	Levitskaya Yuliya Vladimirovna	Ilg'or texnologiyalar markazi	01.11.2021-31.10.2023	1 200,0	Erishilgan natijalar: Loyiha doirasida biror loyihaning barcha bosqichlarini kuzatish hamda yaratilgan so'rov asosida vaziyatni tahlil qilish imkonini beruvchi <u>sysmo.uz</u> platformasi ishlab chiqilgan; Loyiha doirasida ishlab chiqilgan platformani bir nechta loyihalarni monitoring qiluvchi tashkilotlari, jumladan vazirliklar, agentliklar, Oliy ta'lim muassasalari kabi tashkilotlarga tijoratlashtirish imkoniyati mavjud. Qayd etilgan kamchiliklar: Loyiha hisobotida nashrlar haqida ma'lumotlar taqdim etilmagan, Ilmiy loyihani bajarish natijalari bo'yicha olingan muhofaza hujjatlari haqida ma'lumotlar taqdim etilmagan; Ilmiy loyihani bajarish natijalari bo'yicha muhofaza hujjatlari berilgan buyurtmalar soni haqida ma'lumotlar taqdim etilmagan; Ilmiy loyihani bajarish natijalari bo'yicha sinov dalolatnomalari, tatbiq etish dalolatnomalari, mahsulotning sertifikatlari, litsenziyaviy shartnomalari mavjudligi haqida ma'lumotlar taqdim etilmagan; Kalendar rejaning bajarilishini tekshirish bo'yicha ma'lumotlar hisobotda to'liq emas. Jumladan 2-yilga rejalashtirilgan ishlarning 4-7-bandlari bajarilganligining asoslari mavjud emas. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtidan 58 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
18	IZ-202010131	Qovun pashshasi (Myiopardalis pardalina Big.) ga qarshi feromonli tutqichlar ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish	Djumakulov Turgunboy XXX	Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali	01.06.2021-31.05.2023	300,0	Erishilgan natijalar: Qovun pashshasi feromon moddasini sintez qilish uchun kimyoviy tarkibi aniqlanib, aniqlangan feromon moddalardan rezina kapsulalari tayyorlanib laboratoriya va dala sharoitida tekshirish uchun hamkor tashkilotga yuborilgan; Loyihaning ilmiy yangiligi O'zbekiston sharoitida ilk bor qovun pashshasining biomassasini identifikatsiya qilish orqali funksional guruhlarga tutgan, spirt, aldegid, atsetati mono va diyen uglevodorod tutgan alifatik birikmalarning strukturalari aniqlangan; Fermar xo'jaliklari tomonidan qovun pashshasiga qarshi kurashda o'tkazilgan tajribalar dalolatnomasi mavjud. Qayd etilgan kamchiliklar: Qovun pashshasidan olingan sintetik feromondan rezina kapsulalar miqdori va poliz ekinlarida olib borilgan sinov ishlarida sarf me'yori aniq ko'rsatilmagan; Qovun pashshasi sintetik feromonining laboratoriya sharoitida qancha miqdorda sintez qilingani to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas; Dastlabki sinovlar uchun qaysi konsentratlari rezina kapsulalar tayyorlangani va foydalanilgan sarf me'yorlari keltirilmagan;

							Loyiha ishini bajarishda sharoitlar yaratish uchun laboratoriyaga kerakli xarid qilingan asbob-uskuna, reaktiv va reagentlar to'g'risida to'liq ma'lumot keltirilmagan; Qovun pashshasining feromoni biomassasi tayyorlanib, fizik kimyoviy usullarda identifikatsiya qilingan, biroq identifikatsiya natijalari to'liqroq yoritilmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtidan 57 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
19	PZ-202102154	Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda bentonit gillaridan foydalangan holda sug'orish suvlarini tejashning ilmiy asoslangan agrotekhnologiyalarini ishlab chiqish	Abdiyev Anvarjon Almirzayevich	Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Qashqadaryo filiali	01.11.2021-31.10.2024	1 094,8	Erishilgan natijalar: Loyiha doirasida hech qanday ishlanmalar yaratilmagan ammo quyidagi natijalarga erishilgan: Kuzgi bug'doy urug'larini bentonit gillari bilan 30; 40 va 50 kg/t qobiqlash mahsuldor poyalar sonini nazorat (ishlov berilmagan)ga nisbatan mos ravishda 27,6-97,2; 44,3-177,1 va 71,4-214,6 dona yuqori bo'lishiga olib kelgan; Kuzgi bug'doyni sug'orish tartiblari va urug'larni bentonit gillari bilan qobiqlash me'yori mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ham samarali ta'sir ko'rsatib, urug'larni 40-50 kg/t bentonit gillari bilan qobiqlanganda eng yuqori miqdorda mahsuldor boshqoq shakllanib, ushbu maydonlarda kuzgi bug'doyning «Shukrona» va «Sarbon» navlaridan mo'l va sifatli don hosili yetishtirish imkoniyati yaratilgan; Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlar sharoitida, kuzgi bug'doy urug'larini bentonit gillari bilan qobiqlash eng maqbul 40 kg/t me'yorida, CHDNSning 75-80-70 foiz sug'orish tartibida har bir gektar hisobiga kuzgi bug'doyning "Shukrona" navida 13,7-14,8 s/ga, "Sarbon" navida 12,8-14,3 s/ga qo'shimcha hosil va sifatli don yetishtirish ta'minlangan. Qayd etilgan kamchiliklar: Ish natijalari bo'yicha jami 14 ta maqola chop etilgan bo'lib uning ularning birortasi Scopus ilmiy bazasidagi jurnallarda chop etilmagan; Ikkinchi asosiy muammo bu ishning ommalashishi masalasi bu bo'yicha ham akt vnedreniyalar yo'q; Ish bo'yicha yaxshi natijalar olingan ammo uni moliyalashtirish va ommalashtirish masalalari ustida ishlanmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtidan 56 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
20	IL-4921210136	Qishloq xo'jaligi klasterlari uchun elektron tijorat mexanizmlari asosida tovar (ish, xizmat)larning onlayn savdosiga oid raqamli platforma va uning mobil ilovasini yaratish	Xolbayev Sobir Boratovich	Toshkent davlat yuridik universiteti	01.05.2022-30.04.2023	801,9	Erishilgan natijalar: Qishloq xo'jaligi klasterlari uchun muayyan yengillik va qulayliklar yaratilgan. Klasterlar faoliyati bilan bog'liq ko'pgina jarayonlar avtomatlashtirilgan; Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llanilishi natijasida klasterlarning nafaqat ichki bozorga, balki tashqi bozorga ham chiqish imkoniyatlari yaratilgan; Klasterlik faoliyatiga jalb qilinadigan va klasterlarda ish bilan band bo'ladigan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini

							ta'minlashga qaratilgan milliy qonunchilik bazasi sezilarli darajada takomillashtirilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Loyihada amalga oshirilgan ishlar va olingan natijalarning xorijiy analoglari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilmaydi; Loyihada nazarda tutilgan platforma eksportga mo'ljallanganligi bo'yicha ma'lumotlar hisobotda keltirilmagan; Yakuniy hisobotda bir nechta kamchiliklar mavjud bo'lib, yaratilgan platforma mobil ilova texnik va axborot texnologiyalari jihatidan ochib berilmagan, uning tuzilishi, arxitekturasi, ma'lumotlar almashinish jarayonlari, imkoniyatlari, bir vaqtning o'zida foydalanuvchilar soni va boshqa ma'lumotlar keltirilmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtdan 35 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
21	IZ-202010131	Qovun pashshasi (Myiopardalis pardalina Big.) ga qarshi feromonli tutqichlar ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish	Toreniyazov Yelmurat Sheriniyazovich	Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filiali	01.06.2021-31.05.2023	500,0	Erishilgan natijalar: Qovun pashshasi sun'iy feromon moddasi trubka rezinalik va doira plastinkalar tayyorlanib dala sharoitida tekshirish ishlari olib borilgan; Fermer xo'jaligi tomonidan qovun pashshasiga qarshi kurashda sun'iy feromonning biologik va iqtisodiy samaradorligi bo'yicha o'tkazilgan tajribalar dalolatnomasi mavjud. Qayd etilgan kamchiliklar: Dalada feromon tutqichini foydalanishning yangi texnologiyasini yaratish haqida ma'lumotlar topilmadi; Zararkunanda yetuk zotini erta bahordan boshlab qishlovga ketishgacha bo'lgan rivojlanish dinamikasini aniqlashni soddalashtirish, feromon tutqichlar asosida mevalarni himoya qiladigan vositalarni qo'llash texnologiyasini maqbullashtirish bo'yicha xulosada berilmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtdan 35 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
22	AL-482103231	O'zbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)	Normurodova Nozliya Zarilovna	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti	01.06.2022-30.05.2023	612,9	Erishilgan natijalar: Vikipediya tarmog'ida mavjud bo'lgan loyiha mavzu doirasiga oid maqolalarni tahrirlandi va takomillashtirilgan; O'zbek tilida yaratilgan maqolalar va tahrirlangan matnlar ingliz tiliga tarjima qilindi va ikki tilda to'plangan maqolalar uchun maxsus platforma yaratilgan; Vikipediya mezonlari asosida javob beradigan maqolalar "Xorijliklar uchun o'zbek tili" (A2 daraja) kitobi ichiga ikki til (o'zbek, ingliz) da joylashtirilgan. wiki-tsull.netlify.app/maqolalar platformasi yaratildi va tarmoqqa joylashtirilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: "O'zbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish" (vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida) mavzusidagi amaliy loyihani bajarilishi bo'yicha tayyorlangan hisobotda ilmiy

							ishlanmaning xorijiy mavjud analoglariga nisbatan afzalliklarining qiyosiy tahlili keltirilmagan; hisobotda tijoratlashtirish bo‘yicha ma’lumotlar mavjud emas; Loyihada nazarda tutilgan platformani eksportga mo‘ljallanganligi bo‘yicha ma’lumotlar hisobotda keltirilmagan. Shu bilan birga, shartnoma shartlarining 4.2-bandi (yakuniy ilmiy hisobotni belgilangan vaqtdan 30 kun kech topshirgan) bajarilmagan.
23	ALM-202210014	Oqbosh (Brassica oleracea convar (Brassica oleracea convar (L) Alef. Var capitata L. forma. Alba DC.), kolrabi Brassica oleraceaconvar. Acephala DC. Var. gongylodes L.) Bryussel (Brassica oleraceaconvar. Oleracea L. gemmifera DC) karamlarining eksportbop navlarini yetishtirish agrotekhnologiyalarini yaratish	Nurmatov Norqobil Jo‘rayevich	Termiz agrotekhnologiya lar va innovatsion rivojlanish instituti	05.01.2022-31.12.2022	223,0	Erishilgan natijalar: O‘zbekiston janubida Oqbosh (Brassica oleracea convar. capitata (L.) Alef. Var capitata L.forma alba DC.), kolrabi (Brassica oleracea convar. Acephala DC. var.gongylodes L.), bryussel (Brassica oleracea convar. oleracea L. var. gemmifera DC) karamlarining eksportbop istiqbolli navlari tanlanib, maqbul ekish muddatlari aniqlangan; Surxondaryo viloyati sharoitida oqbosh qaramning Termiz-2500 navini tomchilatib sug‘orish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Kalendar rejaning 9-bandi ya’ni sentabr oyida urug‘ tayyorlash bo‘yicha vazifa keltirilgan bo‘lib, tayyorlangan urug‘ bo‘yicha ma’lumotlar hisobotda keltirilmagan; Tajriba olib borilgan 2022-yil ob-havo ma’lumotlari hisobotda keltirilmagan.
24	A-QX-2021-286	Lalmikor maydonlarda boshoqli don, dukkakli don ekinlarni almashlab ekish tizimida tuproqqa ishlov bermasdan ekish (No till) texnologiyasini ishlab chiqish	Qurvantayev Raxmontoy XXX	Tuproqshu-noslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti	01.07.2021-31.06.2024	1 670,4	Erishilgan natijalar: Agronomik qimmatli (0,25-10 mm) makroagregatlar tarkibi “O” till texnologiyasi bo‘yicha no‘xat ekilgan maydonlarning 0-15 sm qatlamida bu agregatlar miqdori 69,29 foizni, 15-30 sm da 66,71 foizni va 30-50 sm qatlamda 69,06 foizni tashkil qilib, an’anaviyga nisbatan qatlamlar bo‘yicha 2,70-4,85 foizga ko‘pligi aniqlangan; SZS 2-1 Qozog‘iston seyalkasida shudgorsiz ekilgan variantlarda 0-15 sm qatlamda 72,88 foizni, 15-30 sm qatlamda 58,34 foizni va 30-50 sm qatlamda 59,08 foizni tashkil qilib, an’anaviy texnologiyaga nisbatan mos ravishda 16,29,6,58 va 3,08 foiz ko‘pligi aniqlangan. Qayd etilgan kamchiliklar: Loyiha bo‘yicha ajratilgan mablag‘lar to‘liq o‘zlashtirilmagan Kalendar rejaning 2021-yil 4-punkti oktyabr oyida tajriba sxemasiga asosan tuproqqa ishlov bermasdan ekish 15.10 va 15.11 kunlari 80, 100, 120 kg/ga hisobida ekilishi keltirilgan ammo ekish muddati va me‘yorlari ushbu hisobot tajriba tizimida natijalari, xulosalarida ma’lumotlar keltirilmagan; Loyiha ijrochilari tomonidan hisobot yilida jami 90 dan ortiq ilmiy ish chop etilgan. Ammo ushbu ilmiy ishlarning barchasi ham loyiha mavzusi va natijalariga to‘liq mos kelmaydi; Loyiha natijalari asosida chop etilgan ilmiy nashrlar keltirilishi kerak FAP, SAP, NAP, ZAP, DGU MGU birortasi mavjud emas DGU guvohnoma ham olinmagan;

							Kalendar rejaning 2024-yil iyul oyida yakuniy hisobotga 1 ta agro tavsiyanoma chop etish rejalashtirilgan ammo chop etilmagan; Loyiha rahbari tomonidan yozilgan lalmikor maydonlarda boshqol don, dukkakli don ekinlarini almashilib ekish tizimida tuproqqa ishlov bermasdan ekish (No till) texnologiyasi ishlab chiqish mavzusidagi amaliy loyihasi hisobotida kalendar rejadagi barcha tahlil tadqiqot va chop etish yakunlanmagan.
25	MRB-2021-540	Sb ₂ (SxSe _{1-x}) ₃ qattiq eritmalar asosidagi arzon, ekologik toza va yuqori samarali yupqa qatlamli quyosh elementlari	Razikov Toxirdjan Mutalovich	Fizika-texnika instituti	01.12.2021-30.11.2023	850,0	Erishilgan natijalar: Sb₂S₃ va Sb₂Ses binar birikma kukunlaridan kimyoviy molekulyar-dastali cho'ktirish (KMDCH) va vakuum-termik bug'latish usuli yordamida yuqori sifatli Sb₂ (Sx,Sei-x) 3 qattiq eritmasining kristall plyonkalari shisha va shisha tagliklarda 300°S va 400°S haroratlarda molibden qatlamini qoplash orqali olingan va ularning maqbul texnologik rejimlari aniqlangan; Borosilikat tagliklarda CTeKJio/Mo/Sb₂ (Sx,Sei-x) 3/CdS/In yupqa qatlamli geterostrukturalar olindi, molibden qatlamli XMPO va vakumli termik cho'ktirish usullari bilan qoplangan; Energodispersion rentgen spektroskopiyasi yordamida olingan Sb₂ (Sx,Sei_x) 3 plyonkalari Sb/ (S+Se) komponentlarining stexiometriyaga yaqin nisbatiga ega ekanligi, sintez qilingan yupqa plyonkalar yuzasida qattiq eritmaning barcha komponentlari (Sb, S, Se) ning taqsimlanishi bir xil ekanligi aniqlangan. Qayd etilgan kamchiliklar: Hisobotda 2023-yil uchun kalendar rejasining 9, 10, 11 va 12-bandlarida e'lon qilingan shisha tuzilmalari to'g'risida ma'lumot yo'q; Loyihada ishlab chiqarilgan quyosh batareyalari narxini va ekologik tozaligini qiyosiy texnik-iqtisodiy baholash bo'yicha ma'lumotlar yo'q, bu quyosh batareyalarining "arzonligi" va ekologik tozaligini baholashni sezilarli darajada murakkablashtiradi; Ishlab chiqarilgan quyosh batareyalarida aloqa materiali sifatida kadmiydan foydalanish ishlab chiqarilgan quyosh batareyalarining "ekologik tozaligi" masalasini yo'q qiladi. Xulosa qilib aytganda, loyiha asosiy maqsadiga erishilmagan.
26	IL-531212015	Turkiston muxtoriyati tarixini yorituvchi www.muxtoriyat.uz elektron platforma va mobil ilova yaratish	Agzamxodjayev Saidakbar Saidovich	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi	01.09.2022-30.08.2023	456,5	Erishilgan natijalar: Tadqiqot natijalaridan "O'zbekiston tarixi" va "Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixi" fanlari uchun oliy o'quv yurtlari Tarix fakulteti magistrilariga o'quv dasturlar ishlab chiqishda, o'quv qo'llanma va darsliklar hamda monografiya tayyorlashda foydalanish mumkin; Tadqiqot natijalari amaliy ahamiyatiga ko'ra, dissertatsiyada tarixiy dalillarga asosan keltirilgan materiallardan, ilmiy xulosalardan O'zbekistonni boshqaruv tizimini takomillashtirishda, millatlararo munosabatlarga oid ilmiy ishlar yaratishda foydalanish mumkin. Qayd etilgan kamchiliklar: Loyiha davomida qo'lga kiritilgan natijalar rejadagiga qaraganda yetarli emas;

							Turkiston Muxtoriyati tarixi va faoliyati haqida atroflicha ma'lumot berruvchi uch til (o'zbek, rus, ingliz)dan iborat alohida mobil ilovasini yaratish va ishga tushirish ko'zda tutilganiga qaramay, na Google Market (Android), na Apple Store (IOs) tizimlarida mazkur loyiha bilan bog'liq mobil ilova yaratilmagan; Loyiha natijalarining xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan 9 ta maqola ro'yxati keltirilgan, lekin bu maqolalarning birortasi talabga javob bermaydi. Loyiha hisobotida ko'rsatib o'tilgan 17 ta konferensiya tezislaridan 8 tasi, 3 ta monografiyadan 1 tasi mahalliy jurnallarda chop etilgan 9 ta maqoladan 6 tasi loyiha mavzusiga to'g'ri kelmaydi; Xulosa qilib aytganda loyihada malakali texnik (IT mutaxassisi) va malakali ilmiy mutaxassislar (Turkiston Muxtoriyati bo'yicha) yetarli darajada jalb qilinmagan.
27	ALM-202210013	O'zbekistonning Janubiy mintaqasi issiqxonalarida limon (citrus limon) yetishtirishning yangi samarador agroteknologiyalarini yaratish	Nadjiyev Joraxon Norsaidovich	Termiz agroteknologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti	05.01.2022-30.12.2022	347,7	Erishilgan natijalar: Janubiy mintaqalarda issiqxona sharoitida limon yetishtirishda tomchilatib sug'orish hamda faollashtirilgan suv bilan tomchilatib sug'orishning suv, ozuqa va boshqa resurslarning iqtisod qilinganligi va oddiy sug'orilganga nisbatan hosildorlik va sifat yuqori bo'lgan; Elektromagnit to'lqin yaratish uskunolari o'rnatilgan va tuproqning agrokimyoviy tahlili o'tkazilgan; Mavjud limon ko'chatlari sug'orish me'yorlari variantlari bo'yicha taqsimlanib fenologik kuzatuvlar olib borilgan; Tuproqning og'ir kimyoviy va fizikaviy, suv fizik tahlili o'tkazilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Kalendar rejada ko'rsatilgan ayrim ishlarning bajarilishi oxiriga yetkazilmagan; Limon yetishtirishda sug'orish usulini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi aniqlanmagan; Hisobotda keltirilgan statistik ma'lumotlar juda eski (2011-2016-yillar); Loyiha yakunlari bo'yicha tavsiyanomalar va broshyuralar chop etilmagan.
28	ALM-202210015	Kam tarqalgan tarkibining qimmatligi va dorivorligi bilan ajralib turuvchi sabzavot ekinlari: rukkola (Eruca sativa L.), mayoran (Majorana hortensis Moench), melissa (Melissa officinalis L.), porey (Allium porrum L) va shnitt (Allium schoenoprasum) piyozlarining Janubiy O'zbekiston sharoitiga mos navlarini yetishtirish agroteknologiyalarini ishlab chiqish	Aramov Muzaffar Xoshimovich	Termiz agroteknologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti	05.01.2022-31.12.2022	297,4	Erishilgan natijalar: Rukkolaning Gratsiya, mayoranning Termos, Melissaning Dozya, porey piyozining Karantanskiy navlari O'zbekistonning janubida yetishtirish uchun istiqbolli navlar sifatida ajratilgan; Rukkola, porey va shnitg piyozlarining maqbul ekish mavsumi kuz ekanligi aniqlangan; Hamma ajratilgan navlar O'zbekiston janubida rivojlanish jarayonini to'liq o'tashi va yuqori sifatli mahsulot va urug' berishi aniqlangan hamda ushbu ekinlarni yetishtirish agroteknologiyalari ishlab chiqilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: 5 ta yangi sabzavot ekinining O'zbekiston janubi sharoitiga mos navlari tanlangan, ularni yetishtirish agroteknologiyasi elementlari ishlab chiqilib, ushbu sabzavot ekinlari navlari Intellektual mulk agentligiga va Davlat nav sinash markaziga topshirish va ularga patent va mualliflik

							guvohnomalari olinishi rejalashtirilgan. Ammo Intellektual mulk agentligiga ariza talabnoma topshirilmagan; Olingan natijalar birorta xorijiy natijalar bilan taqqoslanmagan; Tajriba olib borilgan yil ob-havo ma'lumotlari hisobotda keltirilmagan.
29	MRB-2021-526	CoCr asosli tibbiy materiallarni termik va elektrokimyoviy ishlov berilgandan so'ng mexanik xususiyatlari va biologik moslashuvchanligini o'rganish	Sidikov Akmal Abdikaxarovich	Farg'ona jamoat salomatligi instituti	01.12.2021-30.11.2023	850,0	Erishilgan natijalar: Har bir bobda bajarilgan ishlar va keltirilgan natijalardan xulosa qilish mumkinki, ishda asosan turli o'lchamdagi stendlarga termik va elektrokimyoviy ishlov berish jarayoni to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan; Vakuumda 1180(°S)gacha bo'lgan haroratda implantlarni ishlab chiqarish uchun So-Sg asosidagi materiallarni ma'lum bir rejimda ishlash uchun issiqlik bilan ishlov berish texnikasi ishlab chiqilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Tibbiy klinik, biokimyoviy o'rganishlar olib borilganligi to'g'risida ma'lumotlar yo'q; Haqiqatda qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar topilmadi. Chunki bu ish 10 yil oldin boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan; Biologik moslashuvchanlik vaqti to'liq berilmagan; Hisobotda ko'rsatilgan barcha grafiklar, rasmlar, hatto jumlar ham ko'chirib olingan; Tadqiqotchi xulosasiga ko'ra sinov o'tkazildi deb berilgan lekin qayerda qanday sinovlar o'tkazilgani keltirilmagan; Sinov dalolatnomalari taqdim etilmagan; Ilmiy loyihani bajarish natijalari bo'yicha tatbiq etish dalolatnomalari, mahsulotni sertifikatlari, litsenziyaviy shartnomalar keltirilmagan.
30	AL-422105574	Qorin devori va diafragma churralari rekonstruktiv xirurgiyasi uchun kompozit materiallardan yangi biomoslashuvchan to'r shaklidagi implantatlarni yaratish	Sadikov Rustam Abrarovich	Akademik V.V. Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan jarrohlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	01.04.2022-31.03.2024	1 239,3	Erishilgan natijalar: Rekonstruktiv jarrohlikda qo'llaniladigan kompozit qoplamli, prinsipial jihatdan yangi turdagi to'r implantatsiyasi prototiplari yaratilgan; Intellektual mulk agentligidan 5 ta guvohnoma (FAP) olingan. Qayd etilgan kamchiliklar: Hozirgi zamon tibbiyotidagi yutuqlar mazkur loyihada keltirilgan ma'lumotlar yangi emasligini, jumladan yoritilayotgan ishlar xorijiy mamlakatlarda ham ishlab chiqilganligi, hamda tegishli natijalarga erishib, xulosalar chiqarilganligi, shuningdek tibbiyotda keng ko'lamda qo'llanilib kelayotganligi va shu sababli mazkur loyihani ahamiyati yo'qligini xulosasini chiqarish mumkin; Mahalliy ishlab chiqarilgan deb ko'rsatilgan "NIPROTSSEL" nomli mahsulot Turon Silk Pharm korxonasi tomonidan "Dori vositalari va tibbiy buyumlarning Davlat reyestri" ro'yxatidan o'tkazishga berilmagan; Hozirda "NIPROTSSEL" nomli mahsulot mavjud emas. O'zbekiston Respublikasidagi hech qanday ishlab chiqaruvchi korxona "NIPROTSSEL"ni ishlab chiqarmaydi.

31	PZ-202011141	Teri osti koronar aralashuvining yuqori texnologik usullaridan foydalangan holda yurakning o'tkir ishemik kasalligini davolashning yangi texnologiyasini ishlab chiqish	Alimov Daniyori Anvarovich	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi	01.06.2021-31.05.2024	1 553,2	Erishilgan natijalar: Koronar arteriyalarni aylanib o'tish operatsiyasidan so'ng yurak-qon tomir kasalliklarining o'tkir shakllari (YUIK) bo'lgan bemorlarga intervension aralashuvlar natijalari o'rganilgan va tahlil qilingan. Elektron mikroskop ostida stentlar eksperimental o'rganilgan; Ikki bosqichli revaskulyarizatsiya usuli koronar arteriyalarning ko'p tomirli shikastlanishi bo'lgan bemorlarda koronar arteriyalarning ko'p tomirli shikastlanishi bo'lgan faqat infarkt bilan bog'liq arteriyalarda samarali ekanligi isbotlangan; Shuntlash operatsiyasidan so'ng uzoq muddatda koronar va yurak yetishmovchiligining yomonlashuvining sababi shuntlarning yopilishi va mahalliy arteriyalarda sernozning kuchayishi aniqlangan. Qayd etilgan kamchiliklar: Tijoratlashtirish salohiyati hozircha mavjud emas; Tayyorlik darajasi hisobotda ko'rsatilmagan; Ilmiy yangilikda ko'rsatilgan aynan Koronar arteriyalar uchun 3D modellash tirish texnologiyasini yaratish orqali OKS bemorlarida koronar angiografiya va stentlashni takomillashtirish bo'yicha ma'lumotlar to'liq yoritilmagan; O'rnatilgan stentning samaradorligini baholash uchun maxsus dasturni (Stent Boost) takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar to'liq emas.
32	IL-422105582	O'zbek milliy etnomadaniy tantanavor liboslari kolleksiyasining mobil ilovasini yaratish	Sayfullaev Nodirbek Baxtiyorovich	Milliy rassomchilik va dizayn instituti	22.11.2021-30.10.2022	471,8	Erishilgan natijalar: Arxiv manbalari, tarixiy suratlar, muzey kolleksiyalaridagi Qashqadaryo va Surxondaryo o'ld tarixiy liboslar o'rganilgan va ular asosida zamonaviy tantanavor liboslar kolleksiyasi yaratilgan; O'zbek milliy etnomadaniy tantanavor liboslari kolleksiyasi Qashqadaryo va Surxondaryo liboslari asosida birinchi mobil ilova tashkil etilgan; Ijodiy ishlarning texnik tavsifi shakllantirildi va onlayn kataloglashtirish asosida Google Play Market va App store xizmatlari uchun elektron shakli ifoda etilgan mobil ilovasi yaratilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Dasturiy ta'minot va mobil ilovani Toshkent shahrining ayrim tumanlarida sinovdan o'tkazish rejalashtirilgan, biroq sinov dalolatnomalari ilova qilinmagan; Dasturiy ta'minot va mobil ilovadan foydalanishga bag'ishlangan tadbir bayonnomalari ilova qilinmagan; Onlayn - xarid qilish jarayonida bir yillik loyiha natijasida bajarilgan liboslar kolleksiyasi o'rin olishligi belgilangan. Lekin, mobil ilova to'la shaklda ishlamadi va buni kuzatish imkoni bo'lmadi; Loyiha natijasida qo'lga kiritilishi belgilangan mobil ilova tugallangan bosqichda emas Google Play Market va va App store platformalariga joylanmagan; Loyiha natijasida muzeylarga mahalliy va xorijiy turistlarni jalb qilish imkoniyatini oshirish qayd etilgan, lekin qaysi mexanizm bunga xizmat qilishi ko'rsatilmagan.

33	AL-482105516	Termokimyoviy usul bilan suvni parchalab “yashil vodorod” olish uchun quyosh qurilmasini (1600°C) ishlab chiqish	Suleymanov Sultan Xamidovich	Materialshunoslik instituti	01.06.2022-31.05.2024	2 954,0	Erishilgan natijalar: Rejadan tashqari quyosh pechining energiya xususiyatlarini hisoblash dasturiy ta’minoti ishlab chiqilgan; Rejadan tashqari quyosh pechlari uchun oynalarni tanlash maqsadida stend yaratildi va uning metodologiyasi taklif qilindi; Rejadan tashqari kerakli aniqlikdagi quyosh datchigi ishlab chiqilgan; Berilgan o’lchamli quyosh pechi qurilgan; ZnO ning dissotsiylanish optimal harorat oralig’i aniqlangan; Loyiha doirasida “Scopus” ma’lumotlar bazasida indekslangan jurnalda 1 ta maqola chop etilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Kalendar reja bo’yicha ikkinchi yilning 10-bandida vodorod ishlab chiqarish samaradorligini baholash yozilgan. Lekin xulosa qismida vodorod ishlab chiqarish samaradorlikning qancha foiz bo’lishi yozilmagan; Ishlab chiqilgan quyosh datchigining aniqlik darajasi qancha va u qaysi fizik parametrlarning aniqlik darajasini o’lchashi yozilmagan; Olingan nanokukun 1 mkm dan 3 mkm gacha deb aytilgan, lekin bu nanoo’lchamli kukun emas.
34	A-FA-105	G.barbadense L. turiga mansub L-1477 “Kleystogom-2” nav tizimidagi g’o’zaning gul belgisi genetik ochilmaslik ko’rsatkichi 95-98 foiz bo’lgan texnologiyasini yaratish	Muxiddinov Tilov Iskandarovich	Genetika va o’simliklar eksperimental biologiyasi instituti	01.01.2021-31.12.2023	1 350,0	Erishilgan natijalar: Rejada amalga oshirilishi lozim bo’lgan tajribalar L-1477 (Kleystogom-2 navi) (G. barbadense L) tizmasi standart 9871 (G. barbadense L) navi bilan qiyosiy solishtirish asosida muhim morfobiologik va qimmatli xo’jalik belgilari biometrik tafsilotlardan so’ng tanlashning metodik ko’rsatkichlaridan foydalanib oilalar navlar yaratishning moddiy asosi ota-ona formalari va ularning duragaylari uchinchi yil tadqiqotlariga jalb qilingan; Yangi yaratilgan Kleystogom-2 g’o’za navi ham loyiha maqsadi sari chetdan changlanish imkoniyatlari mutlaq chegaralangan bo’lib, o’simliklarda uchrovchi xozmagam shakldagi gullar xam urug’chi tumshuqchasining kichikligi hamda changdonlarni markazga juda yaqin joylashganligi va uzunligi hisobiga to’liqligicha o’z-o’zini changlay oladigan darajaga keltirilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: “G.barbadense L guriga mansub L-1477 «Kleystogom-2» nav tizimidagi g’o’zaning gul belgisi genetik ochilmaslik ko’rsatkichi 95-98 foiz bo’lgan texnologiyasini yaratish” bo’yicha 2021-2023-yillarga mo’ljallangan amaliy loyiha yakuniy hisoboti talabga javob bermaydi; Loyiha doirasida Surxondaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlariga xizmat safari rejalashtirilib, birlamchi xo’jaliklar tashkil etish rejalashtirilgan, ammo amalda bu to’g’risida hech qanday ma’lumot yo’q; “G.barbadense L turiga mansub L-1477 «Kleystogom-2» nav tizimidagi g’o’zaning gul belgisi genetik ochilmaslik ko’rsatkichi 95-98 foiz bo’lgan texnologiyasini yaratish” mavzusi bo’yicha hisobotda ilmiy yangilik, innovatsiya hech qanday ma’lumot keltirilmagan;

							Ilmiy loyihani bajarish natijalari bo'yicha sinov dalolatnomalari mavjud emas; Olingan ilmiy ishlanmaning xorijiy mavjud analoglariga nisbatan afzalliklarining qiyosiy tahlili qilinmagan; Jahon paxtachiligi amaliyoti tarixida birinchi bor qo'llanilgan deb keltirilgan biroq analoglar yo'qligi asoslanmagan.
35	IZ-2020082938	Matematika fanidan qoraqalpoq tilidagi izohli lug'at va uning onlayn-platformasini yaratish	Kurbanbayev Tuo'yelbay Kadirbaevich	Qoraqalpoq davlat universiteti	01.04.2023-31.03.2024	348,9	Erishilgan natijalar: Loyiha doirasida 2 ta xorijiy, 3 ta mahalliy jurnallarda maqola va 1 ta monografiya chop etilgan hamda 3 ta DGU olgan; Loyiha ishida Qoraqalpoq tiliga asoslangan matematik terminologiya uchun izohli lug'atining texnik ishlanmasi yaratilgan; Loyihaning kalendar rejasi to'g'ri bajarilgan hamda ajratilgan budjet mablag'lari to'g'ri ishlatilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Matematika fanidan qoraqalpoq tilida izohli lug'at va uning onlayn platformasini yaratilgan deb hisoblansa, bu amaliy ish bo'lib hisoblanadi, ilmiy yangilik emas; Loyihada muhim ilmiy natijalar mavjud emas.
36	IL-4821091572	Qalqonsimon bezning autopatologiyasi va uning me'da osti bezidagi asoratlarini nutritiv korreksiyalashning fundamental asoslari	Kuchkarova Lyubov Salijanovna	O'zbekiston milliy universiteti	01.11.2022-31.10.2024	843,6	Erishilgan natijalar: Epidemiologik tadqiqotlar qalqonsimon bez va pankreatik kasalliklar (me'da osti bezi), jumladan autoimmun kasalliklar o'rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatgan, ushbu bezlarning patologik holati asoratlariga selen, sink va yod mikroelementlarining korreksiyalovchi ta'siri o'rganilgan; Tajribaviy hayvonlarda o'tkazilgan morfologik natijalarni, autoimmun patologiyalarni asoslovchi makro va mikro preparatlarni yuborish va to'liq asoslangan natijalarni olish imkoniyati loyihada katta bo'lgan, ishni bajarishda ushbu ko'rsatkichdan foydalanilmagan; Ilmiy natijalar: 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta darslik, 2 ta DGU va 2 ta monografiya, 1 ta scopus Q4, 11 ta xalqaro jurnallar, mahalliy 28 ta va tezislar 48 jumladan 2 ta doktorlik dissertatsiyasi va 11 magistrlik himoyalari ko'rsatilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Kalendar reja bo'yicha qonda barcha biokimyoviy tekshiruvlar o'tkazilib, ular morfometrik tahlil qilingan. Biroq, 01.11.2022 va 31.10.2024 yil 2-yil 1-8 chorak uchun vazifalar (kalendar rejasi bo'yicha) Qalqonsimon va me'da osti bezlarini gistologik jihatdan tahlil qilish amalga oshirilmagan; Tajribaviy hayvonlarda o'tkazilgan morfologik natijalarni, autoimmun patologiyalarni asoslovchi makro va mikro preparatlarni yuborish va to'liq asoslangan natijalarni olish imkoniyati loyihaning katta qismini egallasada, ishni bajarishda ushbu ko'rsatkichdan foydalanilmagan; Chop etilgan qo'llanmalar, darslik va DGU mazmuni loyiha ishiga to'liq mos kelmaydi; Nihoyalangan ishni ilmiy yangiligi algoritmgga solinmagan, eksperimental modellar va davolash yondashuvlari ishlab

							chiqilmagan hamda davolash profilaktika amaliyotiga tatbiq qilinmagan, tibbiy samaradorlik.ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati yoritilmagan.
37	AL-21122144	Mahalliy Apis Millifera jonsiz asalarilardan xitin va xitozan qilish va ular asosida bioparchalanuvchi polimer plyonkalar olish	Ixtiyarova Gulnora Akmalovna	Toshkent davlat texnika universiteti	03.01.2020-31.12.2022	450,0	Erishilgan natijalar: Mahalliy xomashyo jonsiz Apis Mellifera asalarilaridan xitozan olish jarayonlari tadqiq etilgan; Olingan xitozan eritmalarining reologik xossalari o'rganilib, biopolimerning o'rtacha molekulyar og'irligi Mark-Kunn-Xouvnik tenglamasi yordamida viskometrik tarzda hisoblab chiqilgan; Asalarilardan olingan xitozan uchun ($K \sim 1,44 \cdot 10^{-4} \text{ dl/g}$, $z=0,83$), $M_r=165200$. Bundan tashqari, xitozanning xossalarini yaxshilash uchun kislotali gidroliz amalga oshirilgan; Xitozan asosida kumush ionlari ishtirokida Kalayvani usulidan foydalanib xitozan-kumush kompleksi sintezi jarayoni o'rganilgan; Kompleks hosil bo'lishida reaksiya sharoiti, boshlang'ich mahsulotlarning nisbati va rN ko'rsatkichining ta'siri o'rganilgan; Hosil bo'lgan kompleksning tuzilishi IQ spektroskopik usulda tadqiq qilingan; Sintez qilingan polimetall kompleks asosida bakteritsid xossalariga ega bo'lgan biologik parchalanish xususiyati plyonka hosil qilingan va uning bakteritsid xossalari tadqiq etilgan; Olib borilgan tadqiqotlar asosida xitozan-kumush kompleksining bakteritsid xossalari xitozanga nisbatan o'n barobar yuqori bo'lishi aniqlangan va ushbu preparatni tibbiyotda kuygan yaralarini davolashda qo'llash imkoniyati mavjudligi ko'rsatilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Hisobot matnida nanozarralarning hosil bo'lishi, sintez jarayoni, vaqtning ta'siri, molekulyar massaviy tavsiflar va boshqa ta'sirlar bo'yicha natijalar keltirilmagan; Kalendar rejaning 2022-yil 1-bandi bo'yicha har xil tarkib va tipdagi xitozanstabillangan kumush nanozarralarining olinishi nazarda tutilgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar hisobot matnida keltirilmagan; Hisobot matnida plyonka shaklidagi preparatlarning kuygan yaralarni davolash xossalari, ularni kalamush va sichqonlarda sinash bo'yicha tadqiqot ishlari natijalari keltirilmagan; Kalendar rejaga muvofiq amalga oshiriladigan tadqiqotlar xitin, xitozan, xitozan-kumush polimermetalkompleksi olish, uning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish va nanozarralar hosil qilishga qaratilgan bo'lishiga qaramay hisobot so'ngida bu bo'yicha xulosalar deyarli keltirilmagan; Xulosa qismida jami 10 ta yakuniy xulosalar keltirilib, ulardan 7 tasi 1,2,3,6,7,8,9,10-xulosalar O-karboksimetilxitozanga bag'ishlangan. Ushbu xulosalar kalendar rejaga kiritilmagan tadqiqotlar hisoblanadi va rejaga muvofiq kelmaydi.
38	IL-402104471	Tijorat banklari xizmatlarini umumlashtirishga xizmat qiluvchi yagona mobil	Maxmudova Muhlis Qodirjon qizi	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	01.04.2022-31.03.2024	1 101,6	Erishilgan natijalar: Loyiha natijalari tijorat banklarida joriy qilingan va 6 ta dalolatnoma rasmiylashtirilgan;

		ilovasini yaratish (UzComBanksBox)					“Scopus” ma’lumotlar bazasida indekslangan jurnalda 1 ta maqola chop etilgan; UZCOMBANKSBOX nomli mobil ilova va uning dasturiy ta’minoti ishlab chiqilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Ammo, loyiha doirasida chop qilingan 3 ta monografiyaning mazmuniy tarkibini bo’yicha ma’lumot berilmaganligi sababli o’rganish imkoni bo’lmadi.; Hisobotda tijoratlashtirishga tayyorgarlik darajasi tahliliga oid ma’lumotlar topilmadi; Nashrning xalqaro bazada mavjudligini asoslovchi havoalar (silka) bo’yicha tekshirib ko’rilganda, tasdiqlovchi ma’lumotlar topilmadi. Lekin ularning nomlarini tahlil qilishning o’ziyoq, monografiyadagi materiallar ushbu loyiha mavzusiga qanchalik darajada mos keladi degan savolni paydo qiladi.
39	PZ-2020102914	Herba leonuri, Gnaphalii uliginosi herba, Chamomillae recutitae flores, Crataegi flores dorivor o’simliklari asosida yurak-qon tomir tizimiga samarali ta’siriga ega dori vositasini yaratish	Aripov Taxir Fatixovich	O.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti	01.09.2021-31.08.2024	2 369,9	Erishilgan natijalar: Hisobot davrida Herba leonuri, Gnaphalii uliginosi herba, Chamomillae recutitae flores, Crataegi flores, Rhodiola heterodonta, Ajuga turkestanica ekstraktlarining o’tkir va surunkali zahariligi o’rganilgan; Tajriba hayvonlarining umumiy holati, xulq-atvori, tana vaznining ortishi, gematologik va biokimyoviy ko’rsatkichlari nazorat qiymatlaridan farq qilmagan; O’rganilgan ekstraktarning zaif kumulyatsiyasi ham aniqlangan; Herba leonuri, Gnaphalii uliginosi herba, Chamomillae recutitae flores, Crataegi flores ekstraktlarining o’ziga xos faolligini o’rganish eksperimental hayvonlarga (kalamushlarga) sezilarli kardioprotektiv ta’sir ko’rsatgan. Rhodiola heterodonta, Ajuga turkestanica ekstfaktining adaptogen ta’sirini o’rganish eksperimental hayvonlarga (kalamushlarga) og’iz orqali yuborish aniq adaptogen ta’sirga egaligini isbotlagan; Kardioprotektiv va adaptogen oziq-ovqat qo’shimchalarini ishlab chiqarish va ishlatish uchun tasdiqlovchi ilmiy-texnik hujjatlar to’plami tayyorlangan. Qayd etilgan kamchiliklar: Amaliy loyiha mavzusida loyiha maqsadi to’liq keltirilmagan. Sababi o’rganilayotgan dorivor o’simlik obyektlari 6 ta va maqsad ulardan 2 ta biologik faol qo’shimcha olishdir. Shu o’rinda loyiha mavzusida aynan “biologik faol qo’shimchasini yaratish” deb aniq nomlash maqsadga muvofiq bo’lar edi; MChJ «BIOTON» korxonasi tomonidan ushbu ishlanmalar texnologiyasi o’zlashtirilganligi haqida dalolatnomalar hisobot ilovasida keltirilmagan; TI 03535393-55:2024 “Herbal Cardio Harmony” oziq-ovqatga biologik faol qo’shimchasi ishlab chiqarish uchun texnologik ko’rsatma tasdiqlanmagan.

40	MUK-2021-45	ITO nanosimli o'tkazgachlar asosida mikro/nano-kompozit elektrodslarnidazayni, ishlab olinishi va qo'llanilishi	Ro'zimurodov Olim Norbekovich	Turin politexnika universiteti	02.01.2021-31.12.2022	1 000	Erishilgan natijalar: Hisobotda mis oksidi bilan qoplangan natriy vanadat nanosimlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish natijalari keltirilgan; Shu bilan birga, loyiha mualliflari Xitoylik hammualliflar bilan birgalikda kumush oksidlari (fotokatalitik degradatsiya uchun fotokatalizator sifatida ishlatilishi mumkin) va marganes oksidlari (elektrokimyoviy superkondensatorlar ishlab chiqarishda qo'llanilishi mumkin) bilan qoplangan ITO nanosimlarini olish usullari ishlab chiqilgan. Uchinchi natija sifatida esa AOA (anodi alyuminiy oksidi)ning g'ovakliligi va boshqa parametrlari bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan bo'lib, ular elektrolit sifatida oksalat kislotasi qo'llanilgan namunalar asosida olingan. Qayd etilgan kamchiliklar: Natijalar hisobotdagi natijalarga (ularning taqdimoti, rasmiylashtirilishi, ayniqsa, shakllantirilishi) mos kelmaydi bunda elektrolit sifatida sulfat kislotasi ishlatilgan, ammo hisobotda oksalat kislotasiga almashtirilgani ko'rsatilgan. Bunda keltirilgan natijalar quyidagi ish natijalariga mos kelmaydi; 5-band: ITO nanosimlarini olish uchun shablon sifatida titan dioksididan foydalanish bo'yicha natijalar hisobotda aks etmagan; 6-band: ITO nanosimlarini olish uchun shablon sifatida sirkonyum oksididan foydalanish bo'yicha natijalar hisobotda aks etmagan. Aynan oksalat kislotasi ishlatilgan holatlarga oid tegishli ma'lumotlar (SEM tasvirlari, har bir sintez sharti: kuchlanish, kislota konsentratsiyasi va harorat) taqdim etilmagan. Natijada, hisobotning 2.2-jadvalida keltirilgan ma'lumotlarning ishonchligi haqida shubha paydo bo'ladi.
41	IZ-202008311	Ilmiy maqolalarning milliy iqtibos indeksini va ilmiy nashrlarning bibliografik ma'lumotlar bazasini o'z ichiga olgan elektron platforma yaratish	Bakayev Ilhom Izzatovich	Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti	01.02.2021-31.01.2022	600,0	Erishilgan natijalar: Loyiha doirasida o'zbek tilidagi matnlardan ma'nosiga ko'ra kerakli so'zlarni ajratib olish algoritmi yaratilgan; Xalqaro va milliy indekslash tizimlarini hamda ilmiy ijtimoiy tarmoqlar tadqiq va tahlil qilingan; Respublikadagi mavjud ilmiy jurnallarni faoliyatini o'rganib chiqib, milliy indekslash tizimini yaratishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish bo'yicha taklif va mulohazalar ishlab chiqilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Kalendar rejaning 1-yilligida belgilangan vazifalar to'liq bajarilmagan; Loyihaning asosiy vazifasi bo'lgan ilmiy jurnallar sifatini baholash metodologiyasi ishlab chiqilmagan, aksincha loyihada ikkilamchi faktor hisoblangan qidiruv tizimiga asosiy urg'u berilgan; Loyiha doirasida maqsad qilingan elektron platforma to'liq ishlab chiqilmagan va elektron platforma sinov turi ishga tushirilmagan; Scopus bazasiga kiruvchi konferensiya va jurnallarda chiqarilgan maqolalar loyiha mazmuniga mos emas; Tadqiqot doirasida yaratilgan veb sahifa tugallanmagan, juda ko'p funksiyalaridan foydalanish imkoniyati hali to'liq ishga tushirilmagan;

							Chet el analoglaridan hech qanday afzallikka ega emas, aksincha ichki iste'mol uchun ham qo'yilgan talablarga javob bermaydi.
42	ALM-202110006	O'zbekistondagi telekommunikatsiya operatorlari (xizmat ko'rsatuvchi provayderlar) tomonidan ko'llaniladigan tadqiqotlar va tahlillar, tezkor-qidiruv tadbirlarining o'tkazilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan abonent ma'lumotlarini va boshqa ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va taqdim etishga yondashuvlar	Maxmudov Olimjon Alijonovich	"UNICON" DUK	01.10.2021-30.09.2023	2 062,3	Erishilgan natijalar: Loyiha doirasida vakolatli organlar bilan o'zaro ishlash tartibi va ularga taqdim etiladigan abonentlar, ularga ko'rsatiladigan telekommunikatsiya xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va tezkor qidiruv chora-tadbirlari o'tkazilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan O'zbekiston telekommunikatsiya operator (provayder)larining ma'lumotlar bazalarini o'z ichiga olgan axborot tizimlaridagi boshqa ma'lumotlarning yagona formati o'rganib chiqilgan; Foydalanuvchiga ma'lumot berish uchun telekommunikatsiya operatorining blok-sxemasi hamda TQTT foydalanuvchisiga kerakli ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha operatorlar va TQTT o'rtasidagi o'zaro ta'sir qilish algoritmi tahlil qilingan. Qayd etilgan kamchiliklar: Loyiha hisobotida ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'liq taqdim etilmagan; Hisobotda eksportga mo'ljallanganlik tasnifi mavjud emas; Ilmiy ishlanmalar keltirilmagan; Loyihada tijoratlashtirish masalalari yoritilmagan; Kalendar rejada "texnik topshiriq loyihasini ishlab chiqish" vazifasi yuklatilgan, lekin hisobotda texnik topshiriq keltirilmagan; Loyiha kalendar rejasida "Davlat standartini loyihasini ishlab chiqish" vazifasini vakolatli organ bilan kelishish "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligida ro'yxatdan o'tkazish" bandi mavjud bo'lib, hisobotda ijrosi yuzasidan me'yoriy hujjatlar taqdim etilmagan.
43	PZ-20201128	Qoraqalpog'iston Respublikasi sug'oriladigan yerlarida qulay meliorativ rejimni ta'minlovchi suv tejankor sug'orish va sho'r yuvish texnologiyalarini yaratish va poligonini tashkil etish	Kurbanbayev Sagit Yerejepovich	Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali	01.09.2021-31.08.2023	1 556,7	Erishilgan natijalar: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumani, "Kayip Maishiy" fermer xo'jaligida ko'rgazmali maydon yaratilib, unda sho'r yuvish va turli xil suv resurslarini tejovchi texnologiyalar sinovdan o'tkazilgan; Tanlangan maydonda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun kerakli dala ma'lumotlarini tez va onlayn olish imkonini beruvchi asboblari va uskunalari, jumladan: suv salti va yer osti suvlari sathini aniqlash va qayd etish uchun "Aqlli suv" va "Dayver" ko'rilgan va o'rnatilgan, shuningdek tajriba maydonlaridagi suv hisobi inshootlari (shabdorlar), tomchilatib sug'orish tizimi va boshqalar aniq va uz vaqtida ma'lumotlarni olish tizimlari ishlab chiqilgan va suvni tejashga imkon yaratilgan; Fermerlar uchun ekinlarni sug'orishda suvni tejovchi texnologiyalarni tashkil etish va yaratish, suv hisobi inshootlarini ko'rish va o'rnatish bo'yicha qator ko'rgazmali seminar va kurslar o'tkazilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Loyiha ijrochilari tomonidan tavsiya etilgan ishlanmalar qancha maydonda joriy etilganligi ko'rsatilmagan;

							Dala tajribalariga asoslangan amaliy loyihalarni dala tadqiqotlari to'liq o'tkazilishini ta'minlash uchun yil yakunigacha qilib belgilash maqsadga muvofiq. Sababi ushbu yakuniy hisobotda olingan hosildorlik to'liq hisoblanmagan va shuning uchun iqtisodiy samaradorlik ham aniqlanmagan; Tuproq yuzasidan sug'orish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda 2022-yilda g'o'za hosildorligi bo'yicha ma'lumotlar hisobotda aks ettirilmagan; Ushbu loyiha natijalari bo'yicha birorta ham maqola yoki tezis chop etilmagan.
44	AL-632204135	Orolbo'yi hududidagi tuz va qurg'oqchilikka chidamli noan'anaviy ekinlarning istiqbolli galofitlarini ekish va kengaytirish	Xalbekova Xulkar Ummatkulovna	Bioorganik kimyo instituti	01.05.2022-30.04.2023	970,3	Erishilgan natijalar: Olib borilgan tadqiqotlar natijalari Paxtakor va Mirzacho'l hududlari shuningdek Orolning qurigan tubida ko'kalamzorlashtirish uchun nafaqat tuzga chidamli o'simliklarni, balki kuchli ishqoriy tuproqlarda yaxshi o'sadigan o'simliklarni ekish zarurligini aniqlandi; Tuproqlarning gumus bilan ta'minlanganlik darajasi juda past ekanligini nazarga oladigan bo'lsa, avval kam organ o'g'itlar talab etuvchi bir yillik o'simliklarni o'stirish maqsadga muvofiq ekanligi, yillar davomida ularning parchalanishidan hosil bo'ladigan organik chirindilar esa gumusifikatsiya jarayonini tezlashishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Qayd etilgan kamchiliklar: Orolbo'yi hududidagi tuz va qurg'oqchilikka chidamli noan'anaviy ekinlarning istiqbolli galofitlarini ekish va kengaytirish loyihaning nomi bilan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari bir biriga to'g'ri kelmaydi; Orol dengizida olib borilishi kerak bo'lgan tadqiqot natijalari o'rniga Mirzacho'l va boshqa hududlarda olib borilgan tajriba natijalari kiritib qo'yilgan bo'lib ular mavzuga umuman aloqasi yo'q; Orolning qurigan tubidagi tajribalarda ko'karib vegetatsiyasini to'liq o'tagan tajribadagi o'simliklar keltirilmagan.
45	IZ-2021022215	“Jismoniy tarbiya va sport marketingi” o'quv qo'llanmasining elektron platformasini yaratish	Raximov Vladimir Shavkatovich	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti	01.08.2021-30.09.2023	597,3	Erishilgan natijalar: “Jismoniy tarbiya va sport marketingi” o'quv qo'llanmasining elektron platformasini yaratishda va sport marketingini joriy etish bilan bog'liq jarayonni baholash maqsadida sotsiologik so'rov dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi; Hisobot davrida jami 22 ta ish nashr qilingan. Shundan, 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, 18 ta konferensiya to'plami, 2 ta ilmiy maqolalar (shundan 1 tasi scopus bazasidagi jurnallarda) ilmiy ishlar nashr qilingan. Qayd etilgan kamchiliklar: Loyiha natijasi uchun “Jismoniy tarbiya va sport marketingi” o'quv qo'llanmasining elektron platformasi yaratilganligi aytiladi. Lekin bu haqda ma'lumot yetarli emas; Yaratilgan platforma haqida to'liq ma'lumotlar mavjud emas; Scopusda 1 ta maqola chop etilishi aytilgan lekin ko'rsatilgan maqola topilmadi.

46	A-BK-2021-486	Qoramollarning qon-parazitar teylerioz kasalligiga qarshi vaksina yaratish	G'afurov Aktam G'afurovich	Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti	01.11.2021- 31.10.2023	1 328,3	Erishilgan natijalar: Qoramollarning qon-parazitar (teylerioz. piroplazmoz. babezioz) kasalliklarini tarqalish darajasini zamon talablariga mos analizator asosida hamda kasallik tarqatuvchi kanallar faunasi va tarqalish darajasi o'rganilgan; Teyleriozga qarshi vaksinani reaktoenlik va immunogenlik xususiyatlari eksperimental tajribalarda hamda ishlab chiqarish sharoitida o'rganilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Olingan vaksina SHTAMMlari va tajriba namunalari yaratilmagan; Teylerioz kasalligiga qarshi vaksina yaratish bo'yicha yetarli ishlar olib borilmagan ya'ni immunologik ko'rsatkichlar umuman yoritilmagan; Olingan natijalar qilingan ishlar va bajarilgan tadqiqotlar umumiy grant hajmini to'liq qamrab olmagan va "Teyleriozga qarshi vaksina" tajribaviy namunasi Veterinariya qo'mitasiga sertifikat olish uchun taqdim etilmagan.
47	IL-632204183	Cho'l iqlim zonasidagi o'rmon xo'jaligi korxonalarida daraxt, buta va o'tlarning urug'larini mexanizatsiyalashgan holda ekish uchun tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borish va osma seyalka ishlab chiqarish	Mamadjanov Sultanali Islamaliyevich	Bosh maxsus konstruktorlik byurosi-Agromash AJ	01.07.2023-30.06.2024	849,0	Erishilgan natijalar: Saksovlur urug'ini ekish uchun seyalka ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi; Ixtisoslashtirilgan o'rmon xo'jaligi texnikasi uchun texnik hujjatlar olingan; O'rmon xo'jaliklarida barqaror o'rmon plantatsiyalarini va o'rmon pitomniklarida ko'chat yetishtirish uchun yerlarni yaratish imkonini beruvchi saksovlur urug'ini ekishda SNP-1 o'rnatilgan cho'l urug'ini qo'llash bo'yicha usul va tavsiyalar ishlab chiqilgan; Loyihani bajarish jarayonida 4 ta mahalliy, 2 ta xorijiy jurnallarda, 2 ta WoS va Scopus bazasidagi xalqaro nashrlarda maqolalar chop etilgan.1 ta dasturiy mahsulotga guvohnoma olingan. Qayd etilgan kamchiliklar: Davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy loyiha kalendar rejaga mos bajarilmagan; Qo'yilgan vazifalar hisobot davrida to'liq bajarilmagan.
48	AJI-712205644	Xorijiy mamlakatlar fondlarida saqlanayotgan Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosiga oid qadimiy yozma manbalar hamda qo'lyozmalarni o'rganish, raqamlashtirish va heritageofberuni.uz saytini yaratish	Karimova Surayyo Ubaydullayevna	Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat Sharq-shunoslik instituti	01.09.2023-31.08.2024	632,4	Erishilgan natijalar: Angliya, Germaniya, Gollandiya, Turkiya, Fransiya, Eron, Hindiston fondlaridagi Abu Rayhon Beruniy asarlarining qo'lyozmalari to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlandi, ingliz tilida har bir qo'lyozmaning ilmiy tavsifi tuzilib, tizimlashtirildi va maxsus yaratilgan heritageofberuni.uz saytiga joylashtirilgan; Beruniy asarlari qo'lyozmalari haqida to'liq ma'lumotlarni zamonaviy texnologik usulda birinchi marta e'lon qilinmoqda; Loyiha mavzusiga doir 5 ta ilmiy ish , jumladan 1 ta monografiya, 4 ta maqola chiqarilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Kalendar reja bo'yicha heritageofberuni.uz saytini 2024-yil avgust oyida ishga tushirish va mualliflik huquqini olish, sayt uchun materiallarni ingliz tiliga tarjima qilish, sayt interfeysini hamda saytdan

							foydalanish bo'yicha tavsiyanoma va yo'riqnomani ishlab chiqish belgilangan, ammo hisobotda mavjud emas; Sayt ishlamayapti, saytning texnik topshirig'i hisobotda mavjud emas; Hisobotda olingan ilmiy ishlanmaning xorijiy mavjud analoglariga nisbatan afzalliklarining qiyosiy tahlili berilmagan.
49	AL-662204305	Bolalar uchun iboralarning rasmlari izohli lug'atini yaratish	Manukyan Feruza Toraxanovna	O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti	01.06.2023-31.05.2024	311,6	Erishilgan natijalar: Hisobotda rus tilshunosligida bajarilgan ishlar. lug'at tajribalari o'rganilganligi va shu lug'atlarda qo'llangan metodika asos qilib olinganligi berilgan; Avvalambor lug'at uchun bolalar dunyoqarashiga mos. o'zbek urf-odatlarini milliy qarashlari va qadriyatlarini aks ettiradigan frazeologik birliklar saralab olingan; Saralangan iboralarga mos rasmlar chizishda Adobe Illyustrator, Corel Draw dasturlaridan foydalanilgan. Saralangan iboralarni izohlashda antropotsentrik tamoyilga asoslantirilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Taqdim etilgan hisobot hujjatlarda yakuniy mahsulotning tayyor shakli kiritilmagan; Loyiha doirasida ishlab chiqilgan kalendar reja bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. Biroq, ko'rsatilgan ishlar bo'yicha hisobotda aniq ma'lumotlar mavjud emas; 2023-yil iyul oyida "Bolalar uchun iboralar rasmlari lug'atini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish" ko'rsatilgan hisobotda bu tamoyillar berilmagan, shu oyda "Iboralar shakllanishi haqida mahalliy konferensiyada ma'ruza bilan ishtirok etish va maqola chop etish" belgilangan biroq bu ish ko'rsatilgan oyda bajarilmagan; 2023-yil dekabr oyida rejalashtirilgan Ozarbayjon davlat universitetining "Elmi xeberlari" jurnalida ilmiy maqola chop etish mart oyida Sopus va WoS ma'lumotlar bazasida indekslangan xorijiy jurnalda maqola chop etish may oyida loyiha mavzusi doirasida 1 ta falsafa doktori (PhD) va 1 ta fan doktori (DSc) dissertatsiyasi himoya qilish rejasini bajarilganligi to'g'risida ma'lumot mavjud emas; Hisobotda jami 9 ta maqolalar chop etilganligi qayd etilgan bo'lsa-da ularning 6 tasining elektron shaklida taqdim etilgan 3 tasi mavjud emas.
50	ALM-202306231421	Sun'iy intellekt yordamida sportchilarning samaradorlik ko'rsatkichlarini monitoringining axborot tizimini ishlab chiqish	Begmatov Shoxrux Abduvaxob o'g'li	Toshkent axborot texnologiya-lari universiteti	01.08.2023-31.07.2024	428,8	Erishilgan natijalar: Tasvirdagi konturlarni ko'p kanalli usul yordamida ajratib oluvchi dastur, tasvirdan futzal o'yinchilarini butun tana bo'ylab ajratib oluvchi sun'iy intellekt modeliga asoslangan dastur va tasvirdan futzal o'yinchilarini tananing tizza, bo'yin, tirsak qismi bilan ajratib oluvchi sun'iy intellekt modeliga asoslangan dastur ishlab chiqilgan; Futzal o'yinchilarini jamoa formalari bo'yicha ajratib oluvchi algoritmi yaratilgan; Loyiha doirasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2 ta guvohnoma (DGU) olingan hamda 1 ta monografiya va "Scopus" ma'lumotlar bazasida 2 ta maqola chop etilgan.

						Qayd etilgan kamchiliklar: Loyiha hisobotida tijoratlashtirish bo'yicha hisob-kitoblar keltirilmagan; Loyiha hisobotida ilmiy ishlanmaning qiyosiy tahlili keltirilmagan; Loyiha hisobotida ishlanmani eksportga chiqarish bo'yicha hech qanday ma'lumot keltirilmagan; Loyihada ishlab chiqilgan yakuniy dasturdan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma mavjud emas; Loyiha doirasida yaratilgan dastur imkoniyatlari qo'yilgan maqsadni to'liq aks etmaydi, sportchilarning samaradorlik ko'rsatkichlari qanday mezonlarga asoslanib aniqlanganligi to'g'risida loyiha hisobotida ma'lumotlar keltirilmagan; Ishlab chiqilgan model, algoritim va dasturning xorijiy analoglaridan ustunligini ko'rsatuvchi qiyoslash bayoni qilinmagan, ishlab chiqilgan dasturdan foydalanish yo'riqnomasi keltirilmagan va dasturdan foydalanish imkoniyatlari mavjud emas; Ishlab chiqilgan dasturni tijoratlashtirish yoki eksport qilish salohiyati yo'q.
51	ALM-2021233200	O'zbekiston Respublikasida erta turmush va erta tug'ruq holatlari hamda oilaviy ajralishlarni bartaraf etish bo'yicha multimedia mahsulotlarini yaratish	Abduramanov Xamid Xudaybergenovich	Mahalla va oila ilmiy-tadqiqot instituti	22.11.2021-31.10.2024	1 328,4 Erishilgan natijalar: Tadqiqot jarayonida erta nikoh va erta tug'ruq holatlari hamda oilaviy ajralishlarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar, ishlab chiqilgan; Amaliy tavsiyalar loyihani bajarish bo'yicha hisobotda hamda uning ijrochilari tomonidan chop etilgan ilmiy ishlar va yaratilgan multimedia mahsulotlarida o'z aksini topgan; Loyiha doirasida aniq sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilgan va tadqiqotlarning natijalari O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga taqdim etilgan; Loyiha tadqiqoti materiallari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PK-401-son qaroriga 3-ilova 67-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan "Oila va xotin-qizlar qo'mitasi xodimlari, jumladan mahalladagi xotin-qizlar faollarining malakasini oshirish dasturini ishlab chiqishda, dasturdagi "Jamiyatda nikoh institutining roli va ahamiyati" va "Sog'lom turmush tarzi -farovon oila asosi" modullari bo'yicha ma'ruza matni, taqdimotlar, amaliy mashg'ulotlar uchun topshiriqlar ishlab chiqishda foydalanildi; O'zbekiston Respublikasida oila qurishning o'ziga xos xususiyatlari va nikohgacha bo'lgan xulq-atvor hamda farzand tarbiyasiga oilaviy ajralishlarning ijtimoiy-psixologik ta'siri ilmiy tadqiq etildi; Oilaviy ajralishlarning farzand tarbiyasiga ta'sirini aks ettiruvchi 3 ta va oilaviy ajrimlarning profilaktikasiga bag'ishlangan 3 ta ijtimoiy rolik yaratildi. Qayd etilgan kamchiliklar: Olingan ilmiy ishlanmaning xorijiy mavjud analoglariga nisbatan afzalliklarining qiyosiy tahlili keltirilmagan;

							Ajratilgan budget mablag'lari keltirilmagan; Erta turmush va erta tug'ruqda qayd etilgan hududlardagi o'zgarishlarni elektron tarzda kuzatuv xaritasi hisobotda keltirilmagan; Oilaviy ajralish masalasi ushbu holatga tushgan shaxslar orasida individual asosda o'rganilganligi va uning xaritasi yaratilganligi hisobotda keltirilmagan.
52	PZ-202103120	O'zbekistonda gender muammolarini o'rganish, targ'ib etish, monitoringini yuritish, «gender.uz» elektron platformasini yaratish	Egamberdiyeva Nodira Melibayevna	Mahalla va oila ilmiy-tadqiqot instituti	22.11.2021-31.10.2024	2 091,6	Erishilgan natijalar: Tadqiqot ishida ilmiy abstraksiyalash, empirik, statistika, ekspert baholash, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil, sintez usullaridan foydalanilgan; Tadqiqotda tanlash metodi sifatida tasodifiy-ehtimoliy bo'lmagan, ya'ni maqsadli tanlash usulidan foydalanilgan; Reprezentativligini ta'minlashda tadqiqotning axborot-statistika bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi statistik ma'lumotlari tashkil etgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Tashkiliy va boshqaruv tizimlarida, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida gender yo'nalganlikni targ'ib qilish va aholini gender tenglik haqida xabardorligini oshirishning uslublarini ishlab chiqilmagan; Gender munosabatlardagi mas'uliyat, huquqiy munosabatlardagi savodxonlik darajasini oshirish, gender tenglikning milliy madaniyat darajasida shakllantirishda ustuvor vazifaning tahlil qilish, mazkur sohadagi ishlarni tashkil etish hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmagan; Kalendar rejada 3 ta monografiya va 3 ta risola chop etish vazifasi berilgan, lekin ularning asoslari taqdim etilmagan; Kender masalalari bo'yicha ma'lumotlar bazasi, onlayn o'quv kurslari va seminar treninglar yaratilganligi haqida hisobotda ma'lumotlar keltirilmagan; Gender tenglik konsepsiyasining mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etilganligi haqida hujjatlar ilovada keltirilmagan.
53	IL-4821091595	O'zbekiston va Belarus biologik faol o'simlik ekstraktlarining siklodekstrin va liposomal shakllarining in-vitro va in-vivo sharoitidagi qiyosiy tahlili	Gayibova Sabina Narimanovna	Bioorganik kimyo instituti	01.11.2022-31.10.2024	845,7	Erishilgan natijalar: Hisobot davrida kalendar rejasiga asosan in silico sharoitida siklodekstrinlar bilan ekstraktlarni kompleks hosil qilish samaradorligi aniqlangan, ekstraktlarning siklodekstrinlar mavjudligi va yo'qligidagi fazali eruvchanlik profillarining qiyosiy tahlili, shuningdek, olingan profillar asosida ekstrakt inkapsulyatsiyasining termodinamik parametrlarini hisoblash amalga oshirilgan; Siklodekstrinli ekstraktlarining qattiq fazali inkapsulyatsiyalangan shakllari birgalikda bug'lanish va muzlatish bilan quritish yo'li bilan olingan; Yorug'lik optik mikroskopiyasi va ultrabinafsha (UV) spektroskopiyasi yordamida ekstraktlarning morfologiyasi va yutilish spektrlari va ularning siklodekstrinlar bilan qoplangan shakllari aniqlangan;

						Differensial skanerlash mikrokolorimetrik tahlil yordamida ekstraktlarning issiqlik xossalari (eritish cho‘qqilari va boshqalar) va ularning inkapsulyatsiyalangan shakllari o‘rganilgan; Ekstraktlarning zarracha o‘lchamlari va ularning inkapsulyatsiyalangan shakllari aniqlangan; Ekstraktlarning sifat va miqdoriy tarkibi va ularning inkapsulyatsiya qilingan shakllari yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi yordamida aniqlangan; Ekstraktlarning umumiy antioksidant faoliyati va ularning inkapsulyatsiyalangan shakllari in vitro sharoitida o‘rganilgan; Ekstraktlarning xelatlashtiruvchi ta’siri va ularning siklodekstrinlar bilan qoplangan shakllari in vitro sharoitida o‘rganilgan; Reaktiv kislorod turlarini (superoksid anion radikal (O_2^-), gidroksil radikal (OH^-), vodorod peroksidi (H_2O_2)) ekstraktlar va ularning inkapsulyatsiyalangan shakllari siklodekstrinlar bilan komplekslarni in vitro sharoitida ingibirlash o‘rganilgan; Ekstraktlar va inkapsulyatsiyalangan shakllari bilan lipid peroksidatsiyasini ingibirlash in vitro sharoitida o‘rganilgan DPPH radikalini ekstraktlar va ularning inkapsulyatsiyalangan shakllari bilan ingibirlash o‘rganilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy loyiha kalendar rejaga mos ravishda bajarilmagan, qo‘yilgan vazifalar hisobot davriga to‘liq bajarilmagan; Olingan natijalar shuni ma’lum qiladiki, qo‘lga kiritilgan natijalar qo‘yilgan maqsad va vazifaga mos emas.
54	IZ-202010156	G‘o‘za, bug‘doy va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarini masofadan zondlash uchun elektron dastur yaratish	Gulyayev Rinat Amirovich	“Paxta ilmiy-innovatsiya markazi” MCHJ	01.09.2021–31.08.2024	1 372,2 Erishilgan natijalar: Tadqiqotlar natijasida qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining holatini tezkor monitoring qilish, agrotexnik tadbirlarni rejalashtirish, dalalarda ishlayotgan texnikalarni nazorat qilish, dala jurnallarini yuritish imkonini beruvchi qishloq xo‘jaligi yerlarining raqamli masofaviy monitoring tizimi ishlab chiqilib, “Bukhoro agroklasteri” MChJga qarashli paxta-to‘qimachilik agroklasterida joriy etilgan; Yaratilgan elektron dastur agroklasterlarda g‘o‘za, bug‘doy va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarini masofadan zondlash imkonini yaratdi; Ajratilgan mablag‘lar o‘z o‘rnida o‘zlashtirilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: 3 yil davomida olib borilgan amaliy tadqiqotlar uchun yakuniy xulosalar juda kam; Xaritalarni yaratish uchun hisobotda aynan tuproqning harakatchan ozuqa elementlari to‘g‘risida va mexanik va sho‘rlanish holatini aks ettiruvchi jadvallar berilmagan; hisobotda Qozog‘iston va Ukraina uchun ko‘rsatilgan eroziyani oldini olishga qaratilgan ishlanmalardan foydalanilgan; Hisobotda ko‘p ma’lumotlar internet hamda ilmiy ishlardan ko‘chirilgan.

55	AL-4721071164	Tikanli kovul (Capparis spinosa L.) o'simligini plantatsiyasini tashkil etish	Abdullayeva Xuriyatxon Zafarbekovna	O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti	01.04.2022-31.03.2024	1 180,9	Erishilgan natijalar: Sug'orilmaydigan lalmi maydonlarda birinchi yili tikanli kovul o'simligining bo'yi 15-20 sm gacha o'sgan; Jizzax viloyatining Forish davlat o'rmon uchastkasida jami 5 gektar maydonga hamda Jizzax viloyatining Forij tumani "Bog'bon asali" fermer xo'jaligining 10 gektar maydonida tikanli kovul o'simligining plantatsiyasi tashkil etilgan; Andijon viloyati Andijon Davlat o'rmon xo'jaligiga qarashli "M.Z.Bobur nomidagi milliy istirohat bog'i" adirli yerlarining 2 gektar maydonida onalik ko'chatxona va 3 gektar maydonida plantatsiya, Andijon tumani Haqiqat " massivida 23,5 gektar maydonda, Jalaquduq tumani "Flora Darmon shifo" MCHJ ga qarashli 50 gektar maydonda tikanli kovul plantatsiyasi tashkil etilgan; Loyiha natijalari asosida 3 ta tavsiyanoma chop etilgan; Adliya vazirligi tomonidan 3 ta guvohnoma (DGU) olingan. Qayd etilgan kamchiliklar: Tikanli kovul o'simligini ma'daniy plantatsiyalarni tashkil etish uchun urug'larni stratifikatsiya qilish va yana qo'shimcha tadbirlar talab etiladi, aks xolda kovulning qattiq qobiqli urug'lari dastlabki yillari umuman chiqmaydi; Loyihaning yakuniy hisobotida urug'ni ekishga tayyorlash ishlari ochib berilmaganligi sababli, hisobot ilmiy emas balkim texnik hisobot ko'rinishini aks ettirgan.
56	ILM-202110001	O'zbekistonda mavjud ilmiy-texnik va tadqiqot laboratoriyalarini yagona elektron bazasini yaratish	Bobomurodov Ozod Jo'rayevich	Ilmiy-texnik axborot markazi	01.11.2021-31.10.2023	1 795,5	Erishilgan natijalar: Loyihaning ilmiy muhim natijalari, veb-manzilda joylashgan ko'p funksiyali elektron platforma yaratilgan; O'zbekiston Respublikasida amaldagi ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarining "Yagona elektron ma'lumotlar bazasi" axborot tizimini texnik topshiriq talablariga muvofiqligi bo'yicha ekspertizadan o'tkazilgan. Qayd etilgan kamchiliklar: Tadqiqot natijalarini amalga oshirish dalolatnomalari ilova qilinmagan, mualliflar tomonidan chop etilgan ilmiy ishlar ro'yxati keltirilmagan. 3-band: ilmiy-texnikaviy va ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari jihozlari katalogining bosma nusxasini yaratish. 4-, 5-, 6-bandlar: mobil ilovani ishlab chiqish, adaptatsiya qilish va sinovdan o'tkazish. 7-band: Vos, Scopus ma'lumotlar bazalari yoki boshqa yuqori indeksli jurnallarda maqolalar tayyorlash va chop etish hisobotda aks ettirilmagan.
57	A-SS-2021-110	Og'ir yurak-qon tomir kasalliklari bilan xastalangan bemorlarni davolash va reabilitatsiya qilishning personallashtirilgan yuqori texnologiyalarini yaratish	Zufarov Mirjamol Mirumarovich	Respublika ixtisoslash-tirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	01.04.2021-31.03.2024	1 950,0	Erishilgan natijalar: KSning salbiy oqibatlarini rivojlanish xavfini bashorat qilish usuli taklif etilgan; Taklif etilgan bashorat qilish usuli shifokorga operatsiyadan keyingi erta asoratlar rivojlanish xavfining turli darajasiga ega bo'lgan shaxslarni sodda usulda ajratishga imkon beradi;

						bemorga kasallik omillarning ta'sirini yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus reabilitatsiya tadbirlari amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan; Xavf darajasiga muvofiq, kardiolog-shifokorga noxush omillar ta'sirini yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil qilish tavsiya etilgan. Ammo mazkur loyihani 2022-yil 32-sonli Hay'at bayonida o'z hisobidan yakunlash belgilangan.
--	--	--	--	--	--	--